



*8-sinf jahon tarixi fanidan
mavzulashtirilgan*

TEST SAVOLLARI TO'PLAMI



shuhratbek.uz@umail.uz
Shuhratbek.uz

HURMATLI FOYDALANUVCHI!



Mazkur 8-sinf jahon tarixi fanidan tuzilgan mavzulashtirilgan test savollari to'plamini www.Shuhratbek.uz sayti muallifining yozma ruxsatisiz chop etishingiz, to'plamdan nusxa ko'chirishingiz, to'plamdagi ma'lumotlarni boshqa saytlarda chop etishingiz, yoki to'plamni uchinchi shaxslarga berishingiz ta'qiqlanadi.



8-SINF JAHON TARIXI

(870 TA TEST SAVOLLARI)

- 001-Kirish_Buyuk geografik kashfiyotlar (26)
- 002-Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi (15)
- 003-Yangi davr boshlarida G'arbiy Yevropa davlatlari (19)
- 004-Yevropada reformatsiya (12)
- 005-Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi (19)
- 006-Fransiyada mutlaq monarxiya (23)
- 007-XVI-XVII asrlarda Rossiya (23)
- 008-Niderlandiya inqilobi (20)
- 009-Uyg'onish davri (24)
- 010-Ilm-fan taraqqiyoti (22)
- 011-Angliyada burjua inqilobining boshlanishi (20)
- 012-Angliyada fuqarolar urushi va uning oqibatlari (24)
- 013-Angliyaning dunyoda birinchi sanoat mamlakatiga ay
- 014-Amerika Qo'shma Shtatlarining tashkil topishi (26)
- 015-Buyuk Fransuz inqilobi va monarxiyaning tugatilishi (17)
- 016-Buyuk Fransuz inqilobi yakunlari va tarixiy ahamiyati (18)
- 017-XVI-XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi (27)
- 018-Rossiya imperiyasining tashkil topishi (36)
- 19-XVI-XVIII asrlarda Hindiston (22)
- 20-XVI-XVIII asrlarda Xitoy (16)
- 21-XVI-XVIII asrlarda Yaponiya (25)
- 22-XVI-XVIII asrlarda Usmonli turklar imperiyasi (19)
- 23-XVI-XVIII asrlarda Eron (32)
- 24-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Buyuk Britaniya (20)
- 25-Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati (36)
- 26-Fransiyada ikkinchi imperiyaning o'rnatilishi (16)
- 27-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Germaniya va Italiya (14)
- 28-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Rossiya (23)
- 29-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Amerika Qo'shma Shtatlari (16)
- 030-Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashi (33)
- 031-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Hindiston (8)
- 032-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Xitoy (17)
- 33- XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Yaponiya (16)
- 34-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Usmonli turklar imperiyasi (22)
- 35-XVI- XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Afg'oniston (32)
- 36-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Eron (21)
- 37-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Afrika xalqlari (23)
- 38-Yevropada XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda ijtimoiy harakatlar (15)
- 39-Ilm-fan taraqqiyoti (26)
- 40-Adabiyot va san'at (17)

TEST SAVOLLAR

001-Kirish_Buyuk geografik kashfiyotlar (26)

Testlar

1. Industrial jamiyatning G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada qaror topa borishi qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
 - A) XVI-XIX asrlar
 - B) XVII-XIX asrlar
 - C) XV-XIX asrlar
 - D) XV-XVIII asrlar
2. Buyuk geografik kashfiyotlar amalga oshirilgan davrni aniqlang.
 - A) XVI asr boshi -XVII asr boshlari
 - B) XV asr oxiri -XVII asr o'rtalari
 - C) XVI asr boshlari -XVIII asr oxiri
 - D) XV asr boshlari -XVIII asr boshlari
3. Xristofor Kolumb qayerlik bo'lgan?
 - A) Madridlik
 - B) Venetsiyalik
 - C) Florensiyalik
 - D) Genuyalik
4. Xristofor Kolumb tug'ilgan yil...
 - A) Hindistonga Atlantika okeani orqali dengiz yo'li ochildi
 - B) Kamoliddin Behzod tug'ildi
 - C) Kabral Braziliyani kashf qildi
 - D) Muhammad Shayboniyxon tavallud topdi
5. Jamiyatning xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti va demokratik tartiblariga asoslangan shakli qanday nomlanadi?
 - A) neokonservatizm
 - B) imperializm
 - C) kapitalizm
 - D) sotsializm
6. Osiyoda yangi jamiyat, ya'ni kapitalizmni shakllanishi nima uchun uzoq davrni qamrab olgan edi?
 - A) Osiyoda an'anaviy jamiyatning hukm surganligi
 - B) Osiyoda tarqoqlikning mavjudligi
 - C) Osiyoda ilmi odamlarning kam bo'lganligi
 - D) Osiyoning dengiz yollaridan uzoqligi
7. Odamzod insoniyatning butun tarixi davomida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyligining necha foizini XVI-XX asrlarda yaratgan edi?
 - A) 50
 - B) 80
 - C) 90
 - D) 60
8. XIX asr 60-yillari oxirlariga kelib.....
 - A) G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada burjua inqiloblari bo'lib o'tdi
 - B) G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada mulkchilikning yangi shakli vujudga keldi
 - C) Osiyoda burjua inqiloblari nihoyasiga yetdi
 - D) G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada sanoat inqilobi nihoyasiga yetdi
9. Buyuk geografik kashfiyotlarning eng asosiy sababi nimada edi?

- A) Yangi yerlarni ochishga bo'lgan talab
 B) Turklarning Konstantinopolni egallashi
 C) Yevropalik aholining mol-dunyoga o'chligi
 D) Yevropada tovar ishlab chiqarishning o'sishi
10. Buyuk geografik kashfiyotlarning asosiy tashabbuskorlari qaysi davlat dengizchilari bo'lishgan edi?
 A) Angliya va Ispaniya
 B) Fransiya va Portugaliya
 C) Angliya va Italiya
 D) Ispaniya va Portugaliya
11. X.Kolumbning Hindistonga g'arb tomondan borish mumkinligi to'g'risidagi taxminlari kim tuzgan xaritaga asoslangan edi?
 A) Kabral
 B) Toskanelli
 C) Valdzemyuller
 D) Torichelli
12. Ispaniya qiroli va X.Kolumb o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan...
 A) Kolumb yangi ochilgan yerlardan keladigan daromadning 1/10 qismiga egalik qiladigan bo'ldi
 B) Kolumb yangi ochilgan yerlar bilan olib boriladigan savdning 1/8 biriga egalik qiladigan bo'ldi
 C) hamma javob to'g'ri
 D) Kolumb yangi ochilgan yerlarning vitse-qiroli etib tayinlanadigan bo'ldi
13. "Muqaddas Xaloskor" nomi bilan mashhur bo'lgan orolni belgilang.
 A) San Barbados
 B) San Xose
 C) San Domingo
 D) San Salvador
14. Kolumb tomonidan ochilgan yangi hududlarni Hindiston emas, Yangi qit'a ekanligini isbotlab bergan shaxsni aniqlang.
 A) A.Kabral
 B) A.Vespuchchi
 C) V.Torres
 D) Valdzemyuller
15. Yangi dunyoni A.Vespuchchi nomi bilan Amerika deb atalishini kim taklif qilgan edi?(1507 yilda)
 A) L.V.Torres
 B) F.Magellan
 C) A.Kabral
 D) Valdzemyuller
16. 1515 yilda Yangi dunyo Amerika deb atalgan birinchi globus qayerda yaratilgan edi?
 A) Fransiya
 B) Germaniya
 C) Ispaniya
 D) Italiya
17. Qachondan boshlab barcha xaritalardan Kolumb kashf etgan hududlarni "Amerika" deb atash rusum bo'ldi?
 A) 1569-yildan
 B) 1574-yildan
 C) 1563-yildan
 D) 1570-yildan
18. 1519-1522-yillarda kim boshchiligidagi ekspeditsiya dunyo aylana birinchi sayohatni amalga oshirdi?
 A) V.Gama

- B) F.Magellan
C) X.Kolumb
D) V.Torres
19. L.V.Torres tomonidan Avstraliya kashf qilingan yilni aniqlang.
A) 1609 yil
B) 1600 yil
C) 1607 yil
D) 1605 yil
20. Admiral so'zi qaysi tildan olingan?
A) arab
B) italyan
C) lotin
D) fransuz
21. Dunyo bo'ylab birinchi dengiz sayohatini kim va qachon amalga oshirgan edi?
A) Vasko da Gama (1498-99 yillar)
B) F.Magellan (1519-22 yillar)
C) A.Tasman (1642-44 yillar)
D) B.Diash (1486-87 yillar)
22. Abu Rayhon Beruniy o'zining qaysi asarida Amerika qit'asi mavjudligini taxmin qilgan edi?
A) "Mineralogiya"
B) "Kitob suratul arz"
C) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"
D) "Hindiston"
23. Amerika kashf qilingan kun sifatida nishonlanadigan kunni aniqlang.
A) 17 oktyabr
B) 24 oktyabr
C) 12 oktyabr
D) 6 avgust
24. Osiyo qit'asi qirg'oqlari Atlantika okeanining g'arbiy sohilida deb hisoblagan olimni aniqlang.
A) A.VespuchcM
B) P.Toskanelli
C) M.Valdzemyuller
D) G.Gallom
25. 1499-1501-yillarda portugaliyaliklar ekspeditsiyasi tarkibida Braziliya qirg'oqlarini tadqiq etgan olimni aniqlang.
A) L.V.Torres
B) X.Kolumb
C) A.Vespuchchi
D) Vasko da Gama
26. X.Kolumb yangi ochiladigan yerdan olinadigan daromadning qanchasiga egalik qilishi kerak edi?
A) 1/4 qismiga
B) 1/5 qismiga
C) 1/10 qismiga
D) 1/8 qismiga

Testlar

1. Ispaniya qiroli mahalliy hindularni qulga aylantirishni taqiqlab qo'yuvchi qonun chiqargan sanani aniqlang.
A) 1512 yil
B) 1569 yil
C) 1518 yil
D) 1522 yil
2. Qachondan boshlab mustamlakachi davlatlar Afrikadan Amerikaga qullar olib kela boshlagan edilar?
A) XVI asr oxirlaridan
B) XVI asr o'rtalaridan
C) XVII oxirlaridan
D) XVII asr boshlaridan
3. Yangi yerlarni egallashda konkista siyosati olib borilgan yillarni aniqlang.
A) 1550 yildan–XVII asr o'rtalarigacha
B) 1510 yildan–XVII asr o'rtalarigacha
C) 1500 yildan–XVII asr boshlarigacha
D) 1520 yildan–XVII asr boshlarigacha
4. Ispaniya tomonidan 1679-yilga kelib qaysi davlat hududi to'liq bo'sib olingan edi?
A) Peru davlati
B) Inklar davlati
C) Virginiyani
D) Mayyalar davlati
5. Yangi Ispaniya vitse-qirollarigiga kirmagan hududni aniqlang.
A) Markaziy Amerika
B) Chili
C) Meksika
D) Karib dengizi orollari
6. Ispanlar tomonidan tashkil etilgan Peru vitse-qirolligiga kirmagan hududni belgilang.
A) Ekvador
B) Boliviya
C) Braziliya
D) Kolumbiya
7. Yangi Ispaniya va Peru vitse-qirollari necha yil muddatga saylanganlar?
A) 6 yil
B) 3 yil
C) 4 yil
D) 5 yil
8. Ispaniya mustamlakalarida boshqaruvchi etib tayinlangan vitse-qirollarga nimalar taqiqlangan edi?
A) tadbirkorlik bilan shug'ullanish
B) hamma javoblar to'g'ri
C) ko'chmas mulk sotib olish
D) oilasini olib ketish
9. Ispaniya mustamlakalari bilan olib boriladigan savdo qanday tashkilot tomonidan nazorat qilingan?
A) Pan Ispaniya savdo kengashi
B) Vest Indiya kompaniyasi
C) Sevilya savdo palatasi

D) Hindiston kengashi

10. Ispaniya Filippin orollari ustidan hokimiyatni o'rnatgan yilni aniqlang.

A) 1532 yil

B) 1518 yil

C) 1522 yil

D) 1529 yil

11. Portugaliya dengiz sayyohi Kabral 1500 yilda.....ni kashf qildi va uni Portugaliya qiroli mulki deb e'lon qildi.

A) Gvatemala

B) Indoneziya

C) Braziliya

D) Gaiti

12. Ispaniyaning "Yengilmas Armada"si ingliz floti tomonidan tor-mor qilingan sanani aniqlang.

A) 1588 yil

B) 1592 yil

C) 1578 yil

D) 1582 yil

13. Inglizlarning Shimoliy Amerikadagi birinchi mustamlakasini aniqlang.

A) Jorjiya

B) Virginiya

C) Nyu York

D) Meriland

14. Konkista so'zining ma'nosini aniqlang.

A) metropoliya

B) katta flot

C) zabt etish, bosib olish

D) mustamlaka

15. Angliyada Hindiston va boshqa mustamlakalar bilan aloqa olib borish uchun Ost-Indiya kompaniyasi tashkil etilgan sanani aniqlang.

A) 1609 yil

B) 1600 yil

C) 1605 yil

D) 1607 yil

Testlar

1. XVI-XVII asrlarda butun aholining necha foizini dehqonlar tashkil etgan?
 - A) 65 foizini
 - B) 88 foizini
 - C) 70 foizini
 - D) 98 foizini
2. Yevropa aholisi 1650 yilda qanchani tashkil etgan edi?
 - A) 100 million
 - B) 300 million
 - C) 200 million
 - D) 150 million
3. XVII asr o'rtalariga kelib kimlar burjuaziyaning yuqori qatlamiga aylangan edilar?
 - A) korxonalar egalari va brokerlar
 - B) savdogar-negosiantlar va bankirlar
 - C) dilerlar va savdogar-sayyohlar
 - D) bankirlar va sanoat egalari
4. Nechanchi asrga kelib o'rta asr yarmarkalari o'z ahamiyatini yo'qotdilar?
 - A) XVI asr
 - B) XVIII asr
 - C) XVI asr
 - D) XVII asr
5. Yangi tarix davrida jahon savdosining markaziga aylangan davlatlarni aniqlang.
 - A) Fransiya va Gollandiya
 - B) Angliya va Gollandiya
 - C) Ispaniya va Portugaliya
 - D) Angliya va Ispaniya
6. Angliyaga paxta olib kelish huquqi qaysi kompaniyaga tegishli edi?
 - A) Levantiya
 - B) Moskva
 - C) Vest-Indiya
 - D) Ost-Indiya
7. Angliyaga qalampir olib kelish huquqi qaysi kompaniyaga berilgan edi?
 - A) Vest-Indiya
 - B) Levantiya
 - C) Moskva
 - D) Ost-Indiya
8. Angliyaning Rossiya bilan savdo olib boruvchi kompaniyasini aniqlang.
 - A) Ost-Indiya
 - B) Moskva
 - C) Vest-Indiya
 - D) Levantiya
9. Ost-Indiya hududlari bu -
 - A) Hindiston hududi
 - B) Shimoliy Amerika davlatlari
 - C) Janubiy Amerika davlatlari
 - D) Karib dengizi orollari
10. Vest-Indiya hududlari bu-...
 - A) Shimoliy Amerika davlatlari
 - B) Karib dengizi orollari

- C) Hindiston hududi
D) Janubiy Amerika davlatlari
11. XVII asr boshlarida Angliya savdo kompaniyalari qaysi hududlarda o'z nazoratlarini o'rnatdilar?
A) Erondan Shimoliy Amerikagacha, Shvetsiyadan Hindistongacha
B) Hindistondan Rossiyagacha, Erondan Shvetsiyagacha
C) Germaniyadan Rossiyagacha, Erondan Shvetsiyagacha
D) Turkiyadan Vest-Indiya orollarigacha, Gretsiyadan Xitoygacha
12. XVII asrga kelib manufaktura ishlab chiqarish qaysi davlatlarda xo'jalikning asosiy shakliga aylandi?
A) Angliya va Fransiyada
B) Germaniya va Angliyada
C) Fransiya va Gollandiyada
D) Angliya va Gollandiyada
13. XVII asrga kelib manufaktura ishlab chiqarish qaysi davlatda rivojlanish bosqichiga kirdi?
A) Fransiya
B) Shvetsiya
C) Germaniya
D) Rossiya
14. Lotincha "taqsimlanadigan narsa" ma'nosini beradigan atamani aniqlang.
A) patent
B) monopoliya
C) negosiant
D) dividend
15. Yangi davrda ulgurji savdo bilan shug'ullanadigan savdogarlar nima deb atalgan?
A) oligarxiya
B) monopolist
C) negosiant
D) sindikalist
16. Yunoncha "tanho sotaman" ma'nosini beruvchi so'zni aniqlang.
A) monopoliya
B) negosiant
C) dividend
D) patent
17. 1607 yilda o'z aksiyadorlariga 500% miqdorida dividend to'lagan kompaniyani aniqlang.
A) Levantiya
B) Moskva
C) Vest-Indiya
D) Ost-Indiya
18. Mortira bu -
A) to'pponcha turi
B) artilleriya turi
C) tirgakka qo'yib otiladigan miltiq turi
D) shaharlarni himoyalovchi devor
19. Lotincha "ochiq, aniq ravshan" ma'nosini beruvchi so'zni aniqlang.
A) monopoliya
B) patent
C) negosiant
D) dividend

Testlar

1. Reformatsiya bu.....
 - A) hamma javob to'g'ri
 - B) ijtimoiy harakat bo'lgan
 - C) dastlab Germaniyada, keyinchalik boshqa hududlarga tarqalgan harakat
 - D) xristian katolik cherkovini isloh qilishga qaratilgan harakat bo'lgan
2. XVI asrda markazlashgan Angliya va Fransiyadan farqli o'laroq...
 - A) Germaniyada parlament hokimiyati mavjud
 - B) Germaniyada siyosiy tarqoqlik hukm surar edi
 - C) Germaniyada yagona imperator hokimiyati mavjud edi
 - D) Germaniyada yagona din o'rnatilmagan edi
3. Germaniyada imperatorni saylab qo'yadigan 7 ta knyazdan nechitasi arxiyepiskop edi?
 - A) 2 tasi
 - B) 3 tasi
 - C) 4 tasi
 - D) 5 tasi
4. Quyidagi qaysi davlatda hukmdorni 7 ta knyazdan saylashgan?
 - A) Germaniyada
 - B) Fransiyada
 - C) Rossiyada
 - D) Angliyada
5. Martin Lyuter qaysi universitetning ilohiyot professori bo'lgan?
 - A) Vittenberg
 - B) Nyurenberg
 - C) Drezden
 - D) Berlin
6. Qachon Martin Lyuter o'zining "95 tezis" deb nomlangan xitobnomasini cherkov eshigiga yopishtirib qo'ydi?
 - A) 1520-yilda
 - B) 1525-yilda
 - C) 1530-yilda
 - D) 1517-yilda
7. Martin Lyuter o'zining xitobnomasida nimani qattiq qoralagan edi?
 - A) Germaniyaning tarqoqligini
 - B) cherkovning 1/10 solig'ini
 - C) indulgensiya savdosi
 - D) Rim papasi hokimiyatini
8. Germaniyada 1524-yilda boshlangan dehqonlar qo'zg'oloniga kim boshchilik qilgan edi?
 - A) Tomas Myunser
 - B) Martin Lyuter
 - C) Karl Gebbelshtorf
 - D) Tomas Lyuter
9. Qachon Germaniya Reyxstagi Lyuterchi knyazlar talabi bilan har bir nemiz knyazi o'zi va fuqarolari uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi?
 - A) 1529 yil
 - B) 1555 yil
 - C) 1526 yil
 - D) 1538 yil
10. Protestant knyazlar va Rim papasi o'rtasida bitim tuzilgan sanani aniqlang.

A) 1529 yil

B) 1555 yil

C) 1526 yil

D) 1538 yil

11. Tezis so'zining ma'nosi....

A) qoida, isbot

B) dasturulamal

C) masala, muammo

D) xitobnoma

12. Xristian dinida XVI asrda vujudga kelgan yo'nalishni aniqlang.

A) yulianlik

B) protestantlik

C) gregorianlik

D) nestorianlik

Testlar

1. Angliyada qaysi hukmdor davrida butun mamlakat yagona markaz – Londonga bo'ysundirilgan edi?
 - A) Mariya
 - B) Elizaveta I
 - C) Yakov I
 - D) Genrix VIII
2. Mutlaq monarxiya birikmasi quyidagi qaysi atamaga to'g'ri keladi?
 - A) absolutizm
 - B) oligarxiya
 - C) tiraniya
 - D) diktatura
3. Angliya qiroli Genrix VIII Tyudor hukmdorlik yillarini aniqlang.
 - A) 1507-1549-yillar
 - B) 1509-1547-yillar
 - C) 1517-1549-yillar
 - D) 1525-1549-yillar
4. XVI asrda Angliyada qaysi masaladagina parlamentning roziligi shart deb qo'yilgan edi?
 - A) diniy masalalarni hal qilish
 - B) dengizorti mustamlakalarni bosib olishga ruxsat berish
 - C) yangi soliq joriy qilish
 - D) urush e'lon qilish
5. Ingliz qirollarining parlamentning har qanday qarorini taqiqlab qo'yish imkonini beradigan huquqi qanday nomlangan?
 - A) cheklov huquqi
 - B) kворum huquqi
 - C) reks populiya huquqi
 - D) veto huquqi
6. Angliyada mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini qaysi organ belgilar edi?
 - A) Maxfiy Kengash
 - B) Lordlar palatasi
 - C) Parlament
 - D) Oliy Sud
7. Angliyada Tyudorlar sulolasi davrida amalga oshmagan voqeani belgilang.
 - A) Buyuk Britaniya tashkil topdi
 - B) mutlaq monarxiya kuchaydi
 - C) reformatsiya bo'lib o'tdi
 - D) dengizda Angliya hukmronligi o'rnatildi
8. Angliyada reformatsiyani amalga oshirgan qirolni aniqlang.
 - A) Genrix VIII
 - B) Mariya
 - C) Yakov I
 - D) Elizaveta I
9. Angliyadagi protestant cherkovi qanday nom bilan ataladi?
 - A) puritanlik
 - B) kalvinizm
 - C) anglikan
 - D) lyuterchilik
10. Angliyada kontreformatsiyani amalga oshirishga uringan qirolni aniqlang.

- A) Yakov I
 - B) Elizaveta I
 - C) Mariya
 - D) Genrix VIII
11. Angliyada kontrreformatsiya davrida ko'pchilik protestantlar qayerga qochib ketishga majbur bo'lgan edilar?
- A) Fransiya va Daniyaga
 - B) Germaniya va Fransiya
 - C) Gollandiya va Germaniyaga
 - D) Shveysariya va Germaniyaga
12. Ingliz qirolichasi Yelizaveta I ning hukmronlik yillarini aniqlang.
- A) 1558-1605 yillar
 - B) 1556-1603 yillar
 - C) 1556-1600 yillar
 - D) 1558-1603 yillar
13. Ingliz qirollaridan qay biri "Cherkov va dunyoviy ishlarning oliy hukmdori" degan unvon olgan edi?
- A) Yelizaveta I
 - B) Yakov I
 - C) Genrix VIII
 - D) Mariya
14. Yelizaveta I ning o'limidan keyin Angliyada qaysi sulola taxtga keldi?
- A) Gabsburglar
 - B) Vindzorlar
 - C) Stuartlar
 - D) Gogensollernlar
15. Angliyaning XVI asrdagi ashaddiy raqibi bo'lgan davlatni aniqlang.
- A) Ispaniya
 - B) Fransiya
 - C) Gollandiya
 - D) Germaniya
16. Angliya qirolichasi Yelizaveta I ni qaysi qiroli "shakkok" deb atar edi?
- A) Gollandiya hukmdori Vilgelm Oranskiy
 - B) Ispaniya qiroli Filip II
 - C) Germaniya imperatori Karl V
 - D) Fransiya qiroli Genrix III
17. Angliya uchun XVI asr qanday yakunlandi?
- A) Angliyaning dengizda Ispaniyaga hukmronlikni berib qo'yishi bilan
 - B) Angliyada cheklangan monarxiya o'rnatilishi bilan
 - C) Angliyaning kontrreformatsiya amalga oshishi bilan
 - D) Angliyaning Yevropaning buyuk davlati va dengiz hukmdoriga aylanishi bilan
18. Yelizaveta I davrida Angliya Ispaniyaga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan qaysi davlatni qo'llab-quvvatlagan edi?
- A) Shotlandiya
 - B) Belgiya
 - C) Gollandiya
 - D) Fransiya
19. Angliya taxtiga chiqishidan oldin Yakov VI Stuart qaysi davlat qiroli edi?
- A) Fransiya
 - B) Shotlandiya
 - C) Belgiya
 - D) Gollandiya

Testlar

1. Quyidagi qaysi davlatda "Xudoning irodasi shuki, har qanday qaram bo'lib tug'ilgan o'ylab o'tirmasdan bo'ysunmog'i lozim" degan ibora mavjud edi?
 - A) Fransiyada
 - B) Angliyada
 - C) Italiyada
 - D) Germaniyada
2. Angliyadagi parlamentdan farqli o'laroq, Fransiyadagi General shtatlar....
 - A) davlatning siyosiy hayotida faol qatnashar edi
 - B) faqat yuqori tabaqa vakillaridan iborat edi
 - C) doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organga aylana olmadi
 - D) qirolga bo'ysunmas edi
3. Fransiyada qachondan boshlab General shtatlar butunlay chaqirilmay qo'yilgan edi? (XVII asrda)
 - A) 1628 yildan
 - B) 1640 yildan
 - C) 1614 yildan
 - D) 1643 yildan
4. Fransiyadagi viloyatlar parlamentlari orasida qaysi parlamentning obro'si juda katta bo'lgan?
 - A) Parij
 - B) Marsel
 - C) Lion
 - D) Strasburg
5. Fransiyaning qaysi qirol "Davlat – bu men" degan edi?
 - A) Lyudovik XV
 - B) Karl VIII
 - C) Lyudovik XVIII
 - D) Lyudovik XIV
6. Qadimgi Rim davlati xudolaridan bo'lgan Yupiter haykali kimning qiyofasiga o'xshab ishlagan edi?
 - A) Genrix Navarskiy
 - B) Lyudovik XIV
 - C) Genrix Giz
 - D) Lyudovik XVI
7. XVI asr boshlarida Fransiyada....
 - A) Varfolomey kechasi qonli voqeasi sodir bo'ldi
 - B) taxtni egallaydigan yagona sulola yo'q edi
 - C) diniy urushlar boshlanib ketdi
 - D) Lyuter ta'limotiga mos g'oya tarqaldi
8. Fransiyada protestantlar qanday nomlangan edi?
 - A) lyuteranlar
 - B) bulanjistlar
 - C) gugenotlar
 - D) kavenyaklar
9. Fransiyaning qaysi qismida protestantlar, ya'ni gugenotlar ko'pchilikni tashkil qilar edilar?
 - A) janubida
 - B) sharqida
 - C) g'arbida
 - D) shimolida

10. 1562-yilda kim Fransiyada gugenotlar qirg'ini uyushtirishga boshchilik qilgan edi?
A) Genrix Navarskiy
B) Genrix III
C) Genrix Burbon
D) Genrix Giz
11. Fransiyada diniy urushlar davrida kim qattiq intizom o'rnatilgan katolik liga tuzgan edi?
A) Genrix Giz
B) Genrix Burbon
C) Genrix Navarskiy
D) Genrix III
12. Gersog Giz qaysi fransuz qiroli tomonidan o'ldirilgan edi?
A) Genrix III
B) Genrix IV
C) Karl IX
D) Genrix II
13. 1562 yilda gugenotlarning qayerdagi qatag'on qilinishi Fransiyada diniy urushlarni boshlab bergan edi?
A) Marselda
B) Parijda
C) Vassida
D) Lionda
14. XVI asrning ikkinchi yarmida qaysi davlatda 36 yildan ortiq diniy urushlar bo'lib o'tgan edi?
A) Fransiyada
B) Italiyada
C) Germaniyada
D) Angliyada
15. 1572 yil Parijga taklif qilingan gugenotlar kimlarning nikohiga tashrif buyurgan edilar?
A) Genrix va Luizaning
B) Karl va Magdalenaning
C) baron Gizning va Margaritaning
D) Genrix va Margaritaning
16. Genrix IV Burbon Nant ediktini imzolangan sanani aniqlang.
A) 1592 yil
B) 1598 yil
C) 1584 yil
D) 1589 yil
17. Fransiyada kimlar diniy urushlar davrida "azob chekkan avliyolar" deb e'lon qilingan edilar?
A) Genrix Burbon va uning tarafdorlari
B) Genrix Navarskiy va uning tarafdorlari
C) Genrix III va uning tarafdorlari
D) Genrix Giz va uning safdoshlari
18. Fransiya qachon qiroli Genrix III o'ldirilgan edi?
A) 1588-yilda
B) 1576-yilda
C) 1589-yilda
D) 1598-yilda
19. Fransiyada 1589-yilda taxtga qaysi sulola vakillari keldilar?
A) Burbonlar
B) Bonapartlar
C) Valualar
D) Kapetinglar
20. Regent so'zining ma'nosini aniqlang.

- A) diniy rahbar
 - B) vaqtinchalik hukmdor
 - C) muhim qaror
 - D) qonun kuchiga teng buyruq
21. Diniy e'tiqodga yoki biror ta'limotga qattiq yopishib oluvchi shaxs qanday nomlanadi?
- A) fanat
 - B) ekstremist
 - C) regent
 - D) johil
22. Fransiyada diniy urushlarga yakun yasagan Nant edikti imzolanganidan keyin...
- A) hamma javob to'g'ri
 - B) mamlakatda diniy murossozlikka erishildi
 - C) gugenotlar quvg'in qilinmaydigan bo'ldi
 - D) katolik dini davlat dini deb e'lon qilindi
23. Qirolning alohida muhim farmoni qanday nomlanadi?
- A) edikt
 - B) memorandum
 - C) verdikt
 - D) dekret

Testlar

1. Rusning mug'ullarga qaramligi deyarli necha yil davom etgan edi?
 - A) 240 yil
 - B) 220 yil
 - C) 260 yil
 - D) 200 yil
2. Rusning mug'ullarga qaramligi qaysi yilga kelib barham topgan edi?
 - A) 1480-yilda
 - B) 1496-yilda
 - C) 1485-yilda
 - D) 1521-yilda
3. Rusda 1547-yilgacha kimlar podsho unvoniga ega bo'lganlar?
 - A) Moskva knyazlari
 - B) Oltin O'rda xonlari
 - C) Kiyev knyazlari
 - D) Tver knyazlari
4. Rusda 1547-yilgacha davlat hukmdorlari qanday nomlanar edilar?
 - A) Buyuk knyaz
 - B) Boyar
 - C) Gersog
 - D) Mitropolit
5. Poytaxti Moskva bo'lgan yagona, markazlashgan Rus davlati tashkil topgan davrni aniqlang.
 - A) XV asrning o'rtalari
 - B) XVI asrning o'rtalari
 - C) XVI asrning 20- yillari
 - D) XV asr oxiri
6. 1547 yildan boshlab...
 - A) Rusda hukmdorlar podsho deb atala boshlandi
 - B) Oprichnina siyosati yuritila boshlandi
 - C) Ivan IV Qrim xonligini bosib olishga kirishdi
 - D) Shimoliy Urush boshlandi
7. Yosh podsho Ivan IV o'z huzurida qanday maslahat kengashini tuzgan edi?
 - A) Kollegiya
 - B) Xalq Vechesi
 - C) Zemstvo Sobori
 - D) Saylanma Rada
8. Ivan IV ichki siyosatda kimlarning mavqeini zaiflashtirish uchun kurashgan edi?
 - A) boyarlar
 - B) posad aholisi
 - C) knyazlar
 - D) dvoryanlar
9. Rusda davlatga chernosotlar deb kimlarga aytilgan?
 - A) shaharlik hunarmandlar
 - B) yangi dvoryanlar
 - C) shaharlik savdogarlar
 - D) dehqonlar
10. Posad kishilari bular....
 - A) dehqonlar
 - B) yangi dvoryanlar

- C) shaharlik hunarmandlar
D) shaharlik savdogarlar
11. Rossiyada feodallar turli qatlamlari vakillarining birinchi yig'ilishi chaqirilgan yilni aniqlang.
A) 1547 yil
B) 1549 yil
C) 1556 yil
D) 1552 yil
12. Ivan IV qachon oprichnina siyosatini o'tkaza boshlagan edi?
A) 1560-yilda
B) 1556-yilda
C) 1567-yilda
D) 1565-yilda
13. Oprichnina bu -...
A) podsho yerlari
B) boyarlar yerlari
C) dehqonlar yerlari
D) jamoa yerlari
14. Rossiyada terror va zo'rlikka asoslangan oprichnina siyosati kimlarga qarshi qaratilgan edi?
A) boyarlarga
B) ruhoniylarga
C) dvoryanlarga
D) erkin dehqonlarga
15. Ivan Grozniy tomonidan Qozon xonligi bosib olingan sanani aniqlang.
A) 1556 yil
B) 1552 yil
C) 1582 yil
D) 1567 yil
16. XVI asr oxiriga kelib Rossiya hududi qanchaga yetdi?
A) 5,4 mln kv.km
B) 2,6 mln kv.km
C) 6,1 mln kv.km
D) 4,8 mln kv.km
17. Ryurikovlar sulolasi Rossiyani necha yil davomida boshqarishgan edilar?
A) 400 yil
B) 300 yil
C) 600 yil
D) 700 yil
18. Boris Godunov vafotidan keyin (1605-yil) qaysi davlatlar Rossiyaning ichki ishlariga aralasha boshladilar?
A) Polsha va Shvetsiya
B) Litva va Shvetsiya
C) Germaniya va Polsha
D) Finlandiya va Polsha
19. 1609-yilda qaysi davlat Moskvani egallab olgan edi?
A) Gollandiya
B) Shvetsiya
C) Daniya
D) Polsha
20. Pojarskiy va Minin tomonidan Polyaklar Moskvadan quvib chiqarildan sanani aniqlang.
A) 1610 yil
B) 1614 yil
C) 1609 yil

- D) 1612 yil
21. Rossiyada Romanovlar sulolasi hukmronlik qilgan davrni aniqlang.
- A) 1613-1917 yillar
 - B) 1614-1917 yillar
 - C) 1612-1920 yillar
 - D) 1613-1918 yillar
22. Ivan Grozniy tomonidan Sibir xonligi bosib olingan sanani aniqlang.
- A) 1567 yil
 - B) 1552 yil
 - C) 1556 yil
 - D) 1582 yil
23. Zemstvo sobori tomonidan 1550-yilda qabul qilingan qonunlar to'plamini aniqlang.
- A) Yurev qonuni
 - B) Sudebnik
 - C) Zemstvo qonuni
 - D) Russkaya pravda

Testlar

1. Hozirgi Belgiya, Lyuksemburg va Gollandiya hududlarini birlashtirgan davlat XVI asrda qanday nomlangan?
 - A) Utrext
 - B) Normandiya
 - C) Gaskoniya
 - D) Niderlandiya
2. XVI o'rtalarida asrda Niderlandiyadagi qaysi shahar jahon savdosining markazi edi?
 - A) Utrext
 - B) Leyden
 - C) Amsterdam
 - D) Antverpen
3. Antverpen shahri Niderlandiyani daryo orqali qaysi davlatlar bilan bog'lagan?
 - A) Normandiya va Skandinaviya
 - B) Fransiya va Germaniya
 - C) Angliya va Skandinaviya
 - D) Angliya va Fransiya
4. Antverpen shahri Niderlandiyani dengiz orqali qaysi davlatlar bilan bog'lagan edi?
 - A) Angliya va Skandinaviya
 - B) Normandiya va Skandinaviya
 - C) Fransiya va Germaniya
 - D) Angliya va Fransiya
5. XVI asr boshlarida Niderlandiya qaysi davlatning mulki hisoblangan?
 - A) Ispaniya
 - B) Fransiya
 - C) Germaniya
 - D) Angliya
6. Ispaniyaning qaysi hududdan oladigan soliq miqdori uning Amerikadagi mustamlakalaridan 4 barobar ortiq edi?
 - A) Germaniya
 - B) Niderlandiya
 - C) Lyuksemburg
 - D) Andorra
7. 1566-yilda Niderlandiyada boshlangan qo'zg'olonga aholining qaysi tabaqasi boshchilik qilgan edi?
 - A) dehqonlar
 - B) burjuaziya
 - C) dengizchilar
 - D) ishchilar
8. 1566 yilda....
 - A) Ispaniyada Filipp II taxtga chiqdi
 - B) Utrext uniyasi tuzildi
 - C) Gersog Alba Niderlandiyada qonli kengash tashkil etdi
 - D) Niderlandiyada Ispaniya zulmiga qarshi qo'zg'olon boshlandi
9. Niderlandiyada Ispaniyaga qarshi ko'tarilgan qo'zg'oloni bostirish uchun yuborilgan shaxsni aniqlang.
 - A) gersog Navarskiy
 - B) gersog Giz
 - C) gersog Alba

- D) gersog Burbon
10. Ispaniyadan Niderlandiyaga yuborilgan gersog Alba boshqaruv ishida...qo'lladi.
- A) agrar islohotlar o'tkazish yo'lini
B) kelishuv va murosa yo'lini
C) iqtisodiy choralar bilan xalqni tizginda tutish yo'lini
D) terror, jallod qilichi va inkvizitsiyani
11. Niderlandiyada gersog Alba tomonidan tuzilgan "Isyonlar bo'yicha kengash" xalq orasida qanday nomlanar edi?
- A) "Qonli kengash"
B) "Yuqori kengash"
C) "Jallodlar kengashi"
D) "Shafqatsizlik kengashi"
12. Niderlandiyada gersog Alba qanday soliq joriy qildi?
- A) movut solig'i
B) o'ndan bir solig'i
C) jon solig'i
D) tuz solig'i
13. Vilgelm Oranskiy shimoliy hududlarning hukmdori etib tayinlangan sanani aniqlang.
- A) 1572 yilda
B) 1570 yilda
C) 1579 yilda
D) 1578 yilda
14. Gersog Alba qachon Niderlandiyadan ketishga majbur bo'lgan edi?
- A) 1573 yilda
B) 1579 yilda
C) 1570 yilda
D) 1578 yilda
15. 1579 yilda tuzilgan Utrext uniyasi orasida eng aholisi ko'pi va eng badavlati qaysi viloyat edi?
- A) Belgiya
B) Utrext
C) Leyden
D) Gollandiya
16. Niderlandiyaning shimoliy viloyatlari tomonidan "Utrext uniyasi" qachon tuzilgan edi?
- A) 1579 yilda
B) 1570 yilda
C) 1573 yilda
D) 1578 yilda
17. Utrext uniyasining a'zolar tomonidan kim taxtdan tushirilgan deb e'lon qilingan edi?
- A) Genrix II
B) gersog Alba
C) Filipp II
D) Karl V
18. Ispaniya tomonidan Gollandiya respublikasi tan olingan sanani aniqlang.
- A) 1610 yilda
B) 1603 yilda
C) 1609 yilda
D) 1600 yilda
19. Gollandiya shahrining qaysi shahri Antverpendan keyin jahon savdosi markaziga aylangan edi?
- A) Gaaga
B) Amsterdam
C) Leyden
D) Brussel

20. Burjuaziya so'zining asl ma'nosi....

A) sayohatchi

B) shaharlik

C) bankir

D) savdogar

Testlar

1. O'rta Osiyoda qaysi davrlarda uyg'onish davri bo'lib o'tgan edi?
 - A) XIV-XV asrlar
 - B) XIV-XVII asrlar
 - C) ikkala javob to'g'ri
 - D) IX-XII asrlar
2. Yevropada Uyg'onish davri bo'lib o'tgan asrlarni aniqlang.
 - A) IX-XII asrlar
 - B) XIV-XV asrlar
 - C) XIV-XVI asrlar
 - D) XIV-XVII asrlar
3. Birinchi bo'lib teleskopni kashf qilgan olimni aniqlang.
 - A) Jordano Bruno
 - B) Galileo Galiley
 - C) Leonardo da Vinchi
 - D) Nikolay Kopernik
4. Uyg'onish davrining vatani qaysi davlat edi?
 - A) Gollandiya
 - B) Fransiya
 - C) Angliya
 - D) Italiya
5. Uyg'onish davri qaysi davlat madaniyatining qayta tiklanishi bo'lgan?
 - A) Qadimgi Rim va German
 - B) Qadimgi Yunon va Ispan
 - C) Qadimgi Arab va Rim
 - D) Qadimgi Rim va Yunon
6. G'arbiy Yevropada kapitalizm qaysi davlatda ertaroq vujudga kelgan edi?
 - A) Angliyada
 - B) Fransiyada
 - C) Italiyada
 - D) Ispaniyada
7. Tuyg'u va istaklarni cheklash yoki bostirish, azob tortish, hayot ne'matlaridan voz kechish nima deb ataladi?
 - A) savajizm
 - B) kalvinizm
 - C) shovinizm
 - D) asketizm
8. Mashhur ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir yashagan yillarni aniqlang.
 - A) 1483-1520-yillar
 - B) 1547-1616-yillar
 - C) 1564-1616-yillar
 - D) 1452-1519-yillar
9. Mashhur ispan adibi Migel de Servantes yashagan yillarni aniqlang.
 - A) 1452-1519-yillar
 - B) 1483-1520-yillar
 - C) 1547-1616-yillar
 - D) 1564-1616-yillar
10. Uilyam Shekspirning qaysi asarida o'z qizlari tomonidan daydib yurishga mahkum etilgan shaxs tasvirlangan?

- A) "Makbet"
 B) "Qirol Lir"
 C) "Gamlet"
 D) "Otello"
11. "Inson - tabiatning ajoyib mo'jizasi" degan fikr qaysi adibga tegishli?
 A) Migel de Servantes
 B) Leonardo da Vinchi
 C) Dante
 D) Uilyam Shekspir
12. Uyg'onish davrining qaysi adibi insonlarni o'rab turgan olamni sahna, odamlarni esa aktyorlar deb tasavvur qilar edi?
 A) Leonardo da Vinchi
 B) Dante
 C) Migel de Servantes
 D) Uilyam Shekspir
13. "Erkinlik uchun xuddi shon-sharaf uchun qilinganidek, jonni havfga qo'yish kerak" degan shior qaysi asar qahramoniga taaluqli?
 A) "Qirol Lir"
 B) "Don Kixot"
 C) "Hamlet"
 D) "Romeo va Julyetta"
14. Leonardo da Vinchi nimani san'atlar malikasi deb atagan edi?
 A) haykaltaroshlikni
 B) asar yoshishni
 C) rasm chizish san'atini
 D) ixtiro qilishni
15. Leonardo da Vinchining qaysi asarida Isoning o'z shogirdi tomonidan sotilishi voqeasi tasvirlangan?
 A) "Golgof bog'i"
 B) "Mona Liza"
 C) "Mahfiy kecha"
 D) "Havoriylar bazmi"
16. Leonardo da Vinchining mashhur asari bo'lmish Jakonda "Mona Liza" asari hozirda qayerda saqlanadi?
 A) Drezden San'at muzeyida
 B) Sankt Peterburg, Ermitajda
 C) Londondagi Britaniya muzeyida
 D) Parijdagi Luvr muzeyida
17. Mashhur rassomlardan biri Rafael Santining yashagan yillarni aniqlang?
 A) 1483-1520-yillar
 B) 1452-1519-yillar
 C) 1547-1616-yillar
 D) 1564-1616-yillar
18. Zamondoshlari tomonidan "shu xildagilarning yagonasi" deb tan olingan asarni aniqlang.
 A) "Adashgan o'g'ilning qaytishi"
 B) "David"
 C) "Mona Liza"
 D) "Sikstin Madonnasi"
19. Mashhur rassomlardan biri bo'lgan Rembrant qaysi davlatdan bo'lgan?
 A) ispan
 B) ingliz
 C) italyan

- D) gollandiyalik
20. Mikelanjelo Buonarrottining qaysi haykali uning nomini abadiylikka mahkum etdi?
- A) "Nayzabardor"
 - B) "Goliaf"
 - C) "David"
 - D) "Diskobol"
21. Mashhur haykaltarosh Mikelanjelo Buonarrottining "David" haykali qahramoni cho'pon yigit kim bilan jangga kirishish oldidan tasvirlangan?
- A) Siklop
 - B) Atlas
 - C) Goliaf
 - D) Titan
22. Renessans atamasi qaysi tildan olingan?
- A) nemis
 - B) fransuz
 - C) lotin
 - D) italyan
23. "Adashgan o'g'ilning qaytishi" asarining muallifi kim edi? (Ermitaj)
- A) Rafael Santi
 - B) Rembrant
 - C) Mikelanjelo
 - D) Leonardo da Vinchi
24. Avliyo Pyotr soborini qurishni nihoyasiga yetkazgan shaxsni aniqlang.
- A) Mikelanjelo
 - B) Leonardo da Vinchi
 - C) Rafael Santi
 - D) Rembrant

Testlar

1. Yangi davrning buyuk olimlaridan bo'lgan Nikolay Kopernik yashab o'tgan yillarni aniqlang.
A) 1473-1543-yillar
B) 1564-1616-yillar
C) 1548-1600-yillar
D) 1564-1642-yillar
2. Yangi davrning buyuk olimlaridan bo'lgan Jordano Bruno yashab o'tgan yillarni aniqlang.
A) 1564-1616-yillar
B) 1548-1600-yillar
C) 1473-1543-yillar
D) 1564-1642-yillar
3. Yangi davrning buyuk olimlaridan bo'lgan Galileo Galiley yashab o'tgan yillarni aniqlang.
A) 1473-1543-yillar
B) 1548-1600-yillar
C) 1564-1616-yillar
D) 1564-1642-yillar
4. Nikolay Kopernik qaysi davlat universitetlarida o'qigan edi?
A) Polsha va Italiya
B) Fransiya va Angliya
C) Germaniya va Italiya
D) Polsha va Germaniya
5. Buyuk olim Nikolay Kopernikning ilmiy izlanishlari....
A) Yerning harakatsizligi haqidagi ta'limotni rad etdi
B) cherkovning Yer harakatsizligi haqidagi g'oyalarini ilmiy asoslarini yaratdi
C) Yer va Quyosh sistemasi o'zgarimas degan g'oyani ilgari surdi
D) cherkov tomonidan umumiy ilmiy nazariya sifatida qabul qilindi
6. Nikolay Kopernik asari va u chop etilgan sanani aniqlang.
A) "Nola falsafasi", 1600-yilda
B) "Quyosh sistemasi tuzilishi haqida", 1543-yil
C) "Osmon jismlarining aylanishi haqida", 1543-yil
D) "Yulduzlar axboroti", 1543-yil
7. 1600-yil 17-fevralda o'zining ilmiy g'oyalari uchun cherkov inkvizitsiyasi tomonidan gulxanda kuydirib o'ldirilgan olimni aniqlang.
A) Nikolay Kopernik
B) Jordano Bruno
C) Jon Lokk
D) Galileo Galiley
8. Jordano Bruno o'z qarashlariga ko'ra qanday ta'limot tarafdori edi?
A) asketizm
B) panteizm
C) dekartizm
D) bulanjizm
9. Kopernik ta'limoti rasman taqiqlangan sanani aniqlang.
A) 1616 yil
B) 1623 yil
C) 1543 yil
D) 1600 yil
10. Xudo bilan tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi deb hisoblovchi ta'limot qanday nomlanadi?

- A) manixeylik
 - B) panteizm
 - C) dualizm
 - D) santaizm
11. Kim o'zining qarashlarini "Nola falsafasi" deb atagan edi?
- A) Nikolay Kopernik
 - B) Rene Dekart
 - C) Jordano Bruno
 - D) Galileo Galiley
12. "U barcha xalqlar uchun fikr erkinligini talab qildi va shu talabi uchun qatl qilindi" deb kimning haykali tagiga yozilgan?
- A) Nikolay Kopernik
 - B) Rene Dekart
 - C) Jordano Bruno
 - D) Galileo Galiley
13. Teleskop yaratib, shu teleskop bilan osmonni birinchi bo'lib kuzatgan Yevropa olimini aniqlang.
- A) Jordano Bruno
 - B) Rene Dekart
 - C) Galileo Galiley
 - D) Nikolay Kopernik
14. "Yer ham, quyosh ham olamning markazi emas" degan fikr kimga tegishli?
- A) Jordano Bruno
 - B) Rene Dekart
 - C) Galileo Galiley
 - D) Nikolay Kopernik
15. G.Galiley o'z qarashlarini qaysi kitobda bayon etgan?
- A) "Nola falsafasi"
 - B) "Quyosh mamlakatida"
 - C) "Yulduzlar axboroti"
 - D) "Osmon jismlarining aylanishi haqida"
16. Oyda ham Yerdagi kabi tog'lar borligini va hatto Quyoshda dog'lar mavjudligini o'z ilmiy izlanishlarida qayd etgan allomani aniqlang.
- A) Rene Dekart
 - B) Galileo Galiley
 - C) Jordano Bruno
 - D) Nikolay Kopernik
17. Insonning tabiiy huquqlari – yashash, erkinlik va mulkka egalik qilish huquqlari to'g'risida ta'limot yaratgan olimni aniqlang.
- A) Tomas Gobss
 - B) Jon Lokk
 - C) Spinoza
 - D) Jan Boden
18. Qaysi asrdan boshlab odamlar suv va shamoldan energiyaning yangi manbai sifatida foydalana boshladilar?
- A) XVI asr
 - B) XVIII asr
 - C) XVII asr
 - D) XV asr
19. Nechanchi asrdan boshlab ruda portlash yo'li bilan olina boshlandi?
- A) XVIII asr
 - B) XV asr

C) XVII asr

D) XVI asr

20. 1992 yilda Rim Papasi Ioann Pavel II (marhum) kimga nisbatan inkvizitsiya qarori bekor qilinganini va oqlanganini e'lon qilgan edi?

A) Rene Dekart

B) Jordano Bruno

C) Galileo Galiley

D) Nikolay Kopernik

21. XVII asrda qaysi alloma tomonidan davlat hokimiyatini bo'lish, ya'ni ijro etuvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratish haqidagi ta'limotni yaratgan faylasuf olimni aniqlang.

A) Spinoza

B) Jan Boden

C) Jon Lokk

D) Tomas Gobss

22. XVII asrda qaysi davlat ko'mir qazib olish markaziga aylangan edi?

A) Angliya

B) Germaniya

C) Italiya

D) Fransiya

Testlar

1. Londonda dastlabki birja ochilgan sanani aniqlang.
 - A) 1600 yilda
 - B) 1602 yilda
 - C) 1603 yilda
 - D) 1605 yilda
2. XVI asrdan keyin tashqi savdoda monopol huquqni qo'lga kiritgan shaharni aniqlang.
 - A) London
 - B) Parij
 - C) Moskva
 - D) Lyubek
3. XVII asr boshida Angliyada qaysi sulola hukmronligi boshlangan edi?
 - A) Vindsor-Koburgskiy
 - B) Gogensollern
 - C) Gabsburg
 - D) Stuart
4. XVII asr boshida nima uchun Angliyada inqilobiy vaziyat vujudga kelgan edi?
 - A) Qirolning parlament mavqeini yo'qqa chiqarishga intilishi sababli
 - B) hamma javob to'g'ri
 - C) Qirolning "isloh qilingan din" cherkoviga qarshi kurashi sababli
 - D) Qirolning feodal tartiblarni saqlab qolishga intilishi
5. Angliya qirollaridan qay biri mahsulot sifati yomonlashadi deb yangi ixtirolarni taqiqlab qo'ygan edi?
 - A) Yakov II
 - B) Karl II
 - C) Karl I
 - D) Yakov I
6. Yakov I ning qaysi davlat bilan murosasozlik qilishi burjuaziyaning noroziligiga sabab bo'lgan edi?
 - A) Fransiya
 - B) Ispaniya
 - C) Gollandiya
 - D) Rossiya
7. Angliya qiroli Karl I hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
 - A) 1620-1645 yillar
 - B) 1625-1649 yillar
 - C) 1620-1649 yillar
 - D) 1625-1645 yillar
8. 1628 yil Angliya parlamenti qirolning qaysi hujjatni imzolashiga erishgan edi?
 - A) ikkita javob to'g'ri
 - B) "Xabeas korpus akt"
 - C) "Huquqlar to'g'risidagi Bill"
 - D) "Huquqlar to'g'risidagi petitsiya"
9. Senzura so'zining ma'nosi...
 - A) taqiqlayman
 - B) ishdan chetlashtiraman
 - C) nazorat qilaman
 - D) ro'yxatga olaman
10. Angliyada qirol parlamentni tarqatib yuborganidan keyin qaysi davlat unga hujum qilgan edi?

- A) Ispaniya
 - B) Shotlandiya
 - C) Gollandiya
 - D) Irlandiya
11. Angliya parlamenti tomonidan “Buyuk remonstratsiya” deb atalgan hujjatni qabul qilingan sanani aniqlang.
- A) 1641 yil
 - B) 1645 yil
 - C) 1642 yil
 - D) 1640 yil
12. Angliya tarixida Uzoq parlament chaqirilgan sanani aniqlang.
- A) 1641-yil 6-dekabr
 - B) 1645-yil 9-may
 - C) 1640-yil 3- noyabr
 - D) 1643-yil 8-aprel
13. Quyidagi sanalardan qay biri Angliyada burjua inqilobining boshlanish sanasi hisoblanadi?
- A) 1643-yil 8-aprel
 - B) 1645-yil 9-may
 - C) 1641-yil 6-dekabr
 - D) 1640-yil 3- noyabr
14. Angliyada 1640-yil chaqirilgan parlament birinchi navbatda...
- A) Lordlar palatasini tarqatib yubordi
 - B) qirol hokimiyatini bekor qildi
 - C) senzura joriy qildi
 - D) favqulodda sudlarni tarqatib yubordi
15. Angliyada 1640-yil chaqirilgan parlament Maxfiy Kengashning qaysi vakolatini bekor qilgan edi?
- A) tashqi siyosat olib borish
 - B) soliqlar joriy qilish
 - C) to'lovlar joriy qilish
 - D) Oliy Sudni amalga oshirish
16. Oliy davlat yoki hukumat boshlig'iga ko'pchilik tomonidan birgalikda beriladigan rasmiy ariza, iltimosnoma qanday nomlanadi?
- A) petitsiya
 - B) deklaratsiya
 - C) manifest
 - D) dekret
17. Remonstratsiya bu...
- A) maxsus qonun
 - B) birlashuv chaqiruvi
 - C) norozilik hujjati
 - D) qonun loyihasi
18. 1642-yil boshlariga kelib Angliyada....
- A) Maxfiy Kengash tarqatib yuborildi
 - B) Buyuk Remonstratsiya hujjati qirolga taqdim qilindi
 - C) Lordlar palatasi tarqatib yuborildi
 - D) qirol va parlament o'rtasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi
19. Konstitutsiyaga tenglashtirilgan hujjatlar nomi, qonunlar loyihasi ma'nosini anglatuvchi atamani aniqlang.
- A) deklaratsiya
 - B) dekret
 - C) edikt

D) bill

20. Nemischa "hamyon" ma'nosini bildiruvchi, tovarlar va qimmatbaho qog'ozlar ulgurji savdosi bozori ma'nosini anglatuvchi atamani aniqlang.

A) emissiya

B) pristan

C) birja

D) yarmarka

012-Angliyada fuqarolar urushi va uning oqibatlari (24)

Testlar

1. Angliyada fuqarolar urushi boshlangan sanani aniqlang.
 - A) 1642-yil yozida
 - B) 1640-yil kuzida
 - C) 1645-yil bahorida
 - D) 1641-yil yozida
2. Angliya tarixida alohida iz qoldirgan davlat arboblardan Oliver Kromvel yashab o'tgan yillarni aniqlang.
 - A) 1594-1658-yillar
 - B) 1599-1658-yillar
 - C) 1578-1658-yillar
 - D) 1610-1658-yillar
3. 1643-yilda Angliya parlamenti qaysi davlat bilan qirolga qarshi ittifoq tuzdi?
 - A) Ispaniya
 - B) Shotlandiya
 - C) Irlandiya
 - D) Gollandiya
4. Qirol tarafdorlari va parlament armiyasi o'rtasida Neyzbi yaqinidagi hal qiluvchi jang bo'lib o'tgan sanani aniqlang.
 - A) 1646-yil 20-may
 - B) 1645-yil 12-aprel
 - C) 1645-yil 14-iyun
 - D) 1646-yil 3-noyabr
5. 1646 yil qirol yashiringan ...ning egallanishi bilan Angliyada fuqarolar urushi tugadi?
 - A) Manchester
 - B) Nottingam
 - C) Lids
 - D) Oksford
6. 1649-yilda ...ni "keraksiz, xalq farovonligi uchun zararli va xavfli" bo'lgani uchun bekor qildi.
 - A) Lordlar palatasini
 - B) feodal tuzumni
 - C) umum palatani
 - D) qirollik hokimiyatini
7. Angliya Respublika deb e'lon qilingandan keyin butun hokimiyat kimning qo'lga o'tdi?
 - A) Prezidentga
 - B) bir palatali parlament
 - C) Regentga
 - D) Lord-protektorga
8. Angliya tomonidan 1649-yil bosib olingan davlatni aniqlang.
 - A) Shotlandiya
 - B) Irlandiya
 - C) Ispaniya
 - D) Gollandiya
9. Angliya o'z tarixida birinchi va oxirgi marta Respublika deb e'lon qilingan sanani aniqlang.
 - A) 1649-yil 19-may
 - B) 1650-yil 8-mart
 - C) 1653-yil 3-dekabr
 - D) 1649-yil 30-yanvar
10. Oliver Kromvel "Ozod davlat Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaning Lord-protektoriga"

aylangan sanani aniqlang.

- A) 1655 yil
- B) 1654 yil
- C) 1653 yil
- D) 1649 yil

11. 1654-yilda Angliyaning asosiy savdo raqibimag'lubiyatga uchratildi.

- A) Germaniya
- B) Ispaniya
- C) Gollandiya
- D) Rossiya

12. "Qit'aning kalitlari uning belida bog'liq" deb kim haqida aytilgan?

- A) Napoleon Bonapart
- B) kardinal Reshel'ye
- C) Lyudovik XIV
- D) Oliver Kromvel

13. Oliver Kromvel hukmronligi davrida amalga oshirgan eng katta xizmatlaridan birini aniqlang.

- A) Professional parlamentga asos solinganligi
- B) vijdon erkinligining e'lon qilinishi
- C) Vigilar partiyasining tashkil qilinganligi
- D) savdo erkinligining e'lon qilinishi

14. Oliver Kromvel o'limidan keyin Angliyada yana monarxiya qayta tiklangan sanani aniqlang.

- A) 1670 yil
- B) 1688 yil
- C) 1659 yil
- D) 1660 yil

15. Oliver Kromvel vafotidan ikki yil o'tib...

- A) Angliyada monarxiya qayta tiklandi
- B) Shotlandiya bosib olindi
- C) Angliyaning asosiy savdo raqibi Gollandiya mag'lub qilindi
- D) Katolik dini joriy qilina boshlandi

16. Angliyada Karl II hukmronligi yillarini aniqlang.

- A) 1660-1667-yillarda
- B) 1660-1685-yillarda
- C) 1670-1685-yillarda
- D) 1658-1680-yillarda

17. Angliyada 1685-1688 yillarda kim qirollik qilgan edi?

- A) Karl II
- B) Vilgelm Oranskiy
- C) Yakov II
- D) Georg I

18. Angliya qiroli Yakov II davrida aholining keskin noroziligiga sabab bo'lgan voqeani aniqlang.

- A) Gollandiyadan ingliz flotining mag'lub bo'lishi
- B) katolik dini qayta tiklashga urinish
- C) ixtirolarning taqiqlab qo'yilishi
- D) Ispaniya tomonidan talonchilik harakatlariga etarlicha javob berilmagani

19. Angliyada 1688 yildagi "sharafli inqilob" natijasida taxtga o'tirgan shaxsni aniqlang.

- A) Yakov II
- B) Georg I
- C) Vilgelm Oranskiy
- D) Karl II

20. XVII asr oxirida Angliyada....

- A) cheklangan monarxiya qaror topdi

- B) Professional parlament tashkil topdi
 - C) Yangi sulola hukmronligi o'rnatildi
 - D) Vijdon erkinligi e'lon qilindi
21. Lotincha "ma'lum qilaman" ma'nosini beruvchi so'zni aniqlang.
- A) manifest
 - B) petitsiya
 - C) deklaratsiya
 - D) dekret
22. Angliya burjua inqilobi nima bilan yakunlandi?
- A) qirol va parlamentning murosaga kelishi bilan
 - B) parlamentning g'alabasi bilan
 - C) katta yer egalari va dvoryanlarning g'alabasi bilan
 - D) qirol va uning tarafdorlari g'alabasi bilan
23. XVII asr oxirida ingliz qirol "Huquqlar deklaratsiyasi" nomli hujjatni imzolashi bilan...
- A) qirolning qo'shin, sud va mamlakat moliyasi ustidan hukmronligi bekor qilindi
 - B) aholining teng huquqliligi ta'minlandi
 - C) Lordlar palatasi qayta tiklandi
 - D) burjuaziyaning huquqlari cheklandi
24. Quyidagi atamalardan qay biri mustamlaka shakllaridan birini bildiradi?
- A) faktoriya
 - B) konfederatsiya
 - C) protektorat
 - D) anklav

Testlar

- XVIII asrda Angliya parlamentidagi qaysi partiya parlament huquqlarini himoya qilar edi?
A) puritanlar
B) vigilar
C) torilar
D) leyboristlar
- XVIII asrda Angliya parlamentidagi qaysi partiya qirol huquq va manfaatlarini himoya qilar edi?
A) puritanlar
B) leyboristlar
C) vigilar
D) torilar
- Angliya va Shotlandiya o'rtasidagi Uniya qonunlashtirilgan va davlat Buyuk Britaniya deb atala boshlagan sanani aniqlang.
A) 1704 yil
B) 1707 yil
C) 1716 yil
D) 1714 yil
- Angliya parlamentining vakolat muddati 1716-yilgacha qancha yil edi?
A) 5 yil
B) 3 yil
C) 2 yil
D) 4 yil
- 1707-yilda Angliyaning qaysi davlat bilan uniya tashkil etishi Buyuk Britaniya davlatinig paydo bo'lishiga olib keldi?
A) Normandiya
B) Shotlandiya
C) Irlandiya
D) Daniya
D) Suriya qiroli Abu Bakrning
14. Muhammad Ali qachon sulton qo'shinini tor-mor etib, Istanbulga yo'l oldi?
A) 1832-yilda
B) 1834-yilda
C) 1830-yilda
D) 1831-yilda
15. "Sharq masalasi" ning keskinlashuvida Sulton hukumatining ketma-ket muvaffaqiyatsizligi Misr hukmdori Muhammad Alining bosh ko'tarishiga sabab bo'lib, bunda Rossiya ...
A) Sultonni halokatdan saqlab qolib, 1834-yilda Gibraltar bo'g'oziga kirdi
B) Muhammad Alini qo'llab-quvvatladi
C) Muhammad Alini qo'llab-quvvatladi va rejalashtirgan hududlarini bosib oldi
D) Sultonni halokatdan saqlab qolib, 1833-yilda Bosfor bo'g'oziga kirdi
16. Misr hukmdori Muhammad Ali sultonga qarshi yurishi natijasida ...
A) Sultondan 1839-yilda o'z qo'l ostidagi hududlarni boshqarishni meros qoldirishni talab etdi
B) Misr va Sudanni boshqarish huquqini qo'lga kiritdi
C) Barcha javoblar to'g'ri
D) Buyuk Britniya va Fransiya uni qo'llab-quvvatladi
17. 1853-yilda Sharq urushini keltirib chiqargan sababni aniqlang.
A) Bolqon uchun Avstriya va Rossiya o'rtasidagi raqobat
B) Barcha javoblar to'g'ri
C) Rossiyaning Turkiyaga qaram o'lkalarda mustahkamlanib olishiga urinishi
D) Buyuk davlatlarning Turkiyani Rossiyaga qarshi gij-gijlashlari
18. Rossiya va Turkiya o'rtasidagi Sharq urushi Rossiya tarixiga qanday nom bilan kirgan?
A) Qrim urushi
B) Sharqiy urush
C) janubiy urush
D) Ulug' vatan urushi

19. Sharq urushida Rossiya podshohi sultondan nimani talab etdi?
- A) Kavkazorti hududini zudlik bilan berishni talab etdi
 - B) Barcha javoblar to'g'ri
 - C) Konsessiyalar ochish va yirik miqdorda kontributsiya to'lash
 - D) O'lkadagi provaslav xalqlarining homiysi ekanligini tan olishini talab etdi
20. Qachon mustamlakachi buyuk davlatlar Turkiyada uning siyosatini belgilashga imkon beruvchi iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lib qoldilar?
- A) XIX asrning 50-yillariga kelib
 - B) XIX asrning 70-yillariga kelib
 - C) XIX asrning 60-yillariga kelib
 - D) XIX asrning 40-yillariga kelib
21. Turkiya XIX asrning 70-yillarida chet davlatlardan qarzi qanchani tashkil etdi?
- A) 4,4 mlrd frankni
 - B) 3,0 mlrd funt-sterling
 - C) 2,4 mlrd frankni
 - D) 1,8 mlrd dollarni
22. Konsessiya bu ...
- A) (inglizcha - ruxsatnoma) - Oliy qonunga tenglashtirilgan muhim qaror
 - B) (lotincha - ruxsat berish, yon berish) - davlat korxonalarini muayyan muddatga chet el kapitaliga berish haqida shartnoma
 - C) (yunoncha - foydalanish huquqi) - milliy resurslardan foydalanish huquqi
 - D) (yunoncha - tanho sotaman) - iqtisodiyotning bir turida yakka hokimlik

Testlar

1. Eron safaviylari Afg'oniston savdo yo'llarini qachon egallab oldi va bu holat qachongacha davom etdi?
 - A) 1652-yilda 1702-yilgacha
 - B) 1658-yilda 1708-yilgacha
 - C) 1664-yilda 1705-yilgacha
 - D) 1649-yilda 1709-yilgacha
2. 1709-yilda qayerda Eron bosqinchiligiga qarshi qo'zg'alon ko'tarildi?
 - A) Isfahon viloyati
 - B) Tehron shahrida
 - C) Tabriz viloyati
 - D) Qandahor viloyati
3. 1709-yilda qayerda Eron bosqinchiligiga qarshi qo'zg'alonga kim rahbarlik qildi?
 - A) Barakzaylar qabilasidan Do'stmuhammadxon
 - B) Gilza qabilasidan Mir Vaysxon
 - C) Abdali qabilasidan Ahmadxon
 - D) Qo'ldovli qabilasidan Fathxon
4. Qachon Mir Vaysxon Eron poytaxti Isfahonni egalladi?
 - A) 1730-yilda
 - B) 1722-yilda
 - C) 1736-yilda
 - D) 1709-yilda
5. Mir Vaysxon Isfahonni egallagandan so'ng, kim o'zini Eron shohi deb e'lon qildi?
 - A) Zamonshoh
 - B) Mir Vaysxon
 - C) Nodir Quli
 - D) Mir Mahmud
6. Qachon Eron afg'on bosqinchilaridan to'la ozod etildi va unga kim boshchilik qilgan?
 - A) 1738-yilda, Zamonshoh
 - B) 1732-yilda, Fathxon
 - C) 1736-yilda, Ahmadxon
 - D) 1730-yilda, Nodir Quli
7. Nodir Quli qachon Eron shohi deb e'lon qilindi?
 - A) 1738-yilda
 - B) 1736-yilda
 - C) 1732-yilda
 - D) 1730-yilda
8. Qachon Nodirshoh Afg'onistonni bo'ysundirdi?
 - A) 1740-yilda
 - B) 1747-yilda
 - C) 1736-yilda
 - D) 1738-yilda
9. Nodirshoh Afg'onistonni itoatda tutish uchun qanday chora qo'lladi?
 - A) Bo'ysunmagan qabilalarni boshqa hududlarga ko'chirib yuborish siyosatini tutdi
 - B) Qabila boshliqlarining nufuzini kamaytirishga harakat qildi
 - C) Barcha javoblar to'g'ri
 - D) 12 ming jangchini oilalari bilan Erondan ko'chirib keltirdi
10. Nodirshoh qachon vafot etdi?
 - A) 1746-yilda

- B) 1741-yilda
C) 1740-yilda
D) 1747-yilda
11. Afg'on qabila xonlarining kengashi qanday yuritiladi?
A) qurultoy
B) veche
C) jirg'a
D) xunta
12. Ahmadxon qaysi qabila boshlig'i edi?
A) qo'ldovli
B) gilza
C) barakzay
D) abdali
13. Afg'oniston shohlarining qaysi biri "Durri-duron" unvonini qabul qildi?
A) Do'stmuhammadxon
B) Fathxon
C) Zamonshoh
D) Ahmadshoh
14. Ahmadshohning harbiy yurishlarini kim davom ettirdi?
A) Fathxon
B) Muhammadxon
C) Zamonshoh
D) Do'stmuhammadxon
15. Durroniylar hukmronligi zaiflashishiga sabab nima edi?
A) Bosib olingan o'lka xalqlarining doimiy qo'zg'alonlari
B) Ichki nizolar
C) Markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik harakati
D) A va B javoblar to'g'ri
16. Durroniylar hukmronligi davrida bosh vazir kim edi?
A) barakzaylar yetakchisi Fathxon
B) qo'ldovli qabilasi yetakchisi Do'stmuhammadxon
C) gilza qabilasi yetakchisi Mir Mahmud
D) abdali qabilasi yetakchisi Ahmadxon
17. Fathxon Afg'onistonni o'z qo'lida tutib turish uchun kimga tayanar edi?
A) Hokimiyatga bo'ysunishni istamagan qabila boshliqlariga
B) Harbiy sardorlardan biri Do'stmuhammadxon
C) Hokimiyatning oliy amaldorlariga
D) Afg'on qabila boshliqlariga
18. Qachon Afg'oniston taxtini Do'stmuhammadxon egalladi?
A) 1838-yilda
B) 1826-yilda
C) 1841-yilda
D) 1809-yilda
19. Do'stmuhammadxon Afg'oniston taxtini egallagach o'zini kim deb e'lon qildi?
A) xalifa
B) qoon
C) amir
D) xon
20. Do'stmuhammadxon Afg'oniston taxtini egallagach, qaysi sulola hukmronligi boshlandi?
A) Muhammadiylar sulolasi
B) Durroniylar sulolasi
C) Barakzaylar sulolasi

- D) Abdalilar sulolasi
21. Osiyoda Buyuk Britaniya va Rossiya manfaatlarini to'qnashgan hudud?
A) Turkiston
B) Afg'oniston
C) Iroq
D) Eron
22. Qachon Buyuk Britaniya Afg'onistonga hujum qildi?
A) 1828-yilda
B) 1826-yilda
C) 1838-yilda
D) 1836-yilda
23. Buyuk Britaniya Kobul shahrini egallagach kim taxtga o'tqizildi?
A) Zamonshoh
B) Fathxon
C) Shuju
D) Sherali
24. Buyuk Britaniya bosqinchiligiga qarshi qachon Kobul aholisi qo'zg'alon ko'tardi?
A) 1838-yilda
B) 1841-yilda
C) 1842-yilda
D) 1843-yilda
25. Birinchi ingliz - afg'on urushi qachon qanday natija bilan yakunlandi?
A) 1841-yilda, Afg'onistonga katta miqdorda tovon to'lash majburiyati bilan
B) 1842-yilda Buyuk Britaniya mag'lubiyati bilan
C) 1842-yilda, Afg'oniston mag'lubiyati bilan
D) 1841-yilda, ikki davlat o'rtasida do'stlik shartnomasi bilan
26. "Ost-Indiya" kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini qachon bo'ysundirdi?
A) 1857-yilda
B) 1855-yilda
C) 1858-yilda
D) 1843-yilda
27. Qaysi hududning egallanishi bilan Britaniya mustamlakalari hududi Afg'onistonga tutashdi?
A) Sind viloyati
B) Kashmir viloyati
C) Davlatobod shahri
D) Dehli shahri
28. Do'stmuhammadxon qachon Buyuk Britaniya hukumati bilan do'stlik shartnomasini imzoladi?
A) 1858-yilda
B) 1843-yilda
C) 1855-yilda
D) 1857-yilda
29. Do'stmuhammadxon qachon Buyuk Britaniya hukumati bilan harbiy shartnoma imzoladi?
A) 1855-yilda
B) 1857-yilda
C) 1858-yilda
D) 1843-yilda
30. Qaysi voqea Buyuk Britaniya uchun Afg'onistonni vassal davlatga aylantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi?
A) 1855-yildagi do'stlik shartnomasi
B) 1857-yildagi harbiy shartnoma
C) 1844-yilda Kandahor viloyatining egallanishi
D) 1838-yil Kobul shahrining egallanishi

31. Afg'on amiri Do'stmuhammadxon qachon vafot etdi?

A) 1857-yilda

B) 1867-yilda

C) 1863-yilda

D) 1865-yilda

32. Durri-duron bu -

A) Javohirlar-javohiri

B) Hamma javoblat to'g'ri

C) Kuchli, qudratli, toza

D) Buyuklik toji

36-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Eron (21)

Testlar

- XIX asrda Eronda shoh huzuridagi Maxfiy kengashga qaysi lavozimlar kirgan?
 - Sadra'zam, devonbegi, hakimboshi va munshiy
 - Qo'shbegi, devonbegi, vazir, hakimboshi va qozikalon
 - Sadra'zam, amin ad-davla, vazir, devonbegi va shayx ul-islom
 - Sadra'zam, amin ad-davla, vazir, hakimboshi va shayx ul-islom
- XIX asrda Eronda viloyatlarni kim boshqargan?
 - qushbegi
 - vazir
 - beklarbegi
 - sadra'zam
- XIX asrda Eronda taxt vorisiga Ozarboyjon berilgan bo'lib, uning qarorgohi qayerda joylashgan edi?
 - Bokuda
 - Isfahonda
 - Tabrizda
 - Tehronda
- Qaysi davrga kelib Eron xalqaro siyosatda muhim o'rin tuta boshladi?
 - XIX asr boshlariga kelib
 - XVIII asr o'rtalariga kelib
 - XIX asr oxirlariga kelib
 - XX asr boshlariga kelib
- Eron xalqaro siyosatda muhim o'rin tuta boshlagach, Rossiya qaysi hududni qo'lga kiritishga intilar edi?
 - Afg'onistonni
 - Turkmanistonni
 - Kavkazni
 - Iroqni
- 1813-yilda Rossiya - Eron o'rtasida shartnoma imzolanib, bu shartnoma ...
 - Eron neft boyliklari Rossiyaga konsessiyaga berildi
 - Eronga katta miqdorda kontributsiya to'lash shartini qo'ydi
 - Rossiya Kavkazga bo'lgan da'volaridan voz kechdi
 - Rossiya Kavkazda yanada mustahkamlanib olishiga imkon berdi
- 1826-1828 yillarda Eron - Rossiya urushi bo'lib o'tib, qanday shartnoma imzolanishi bilan yakun topdi?
 - Kuchukqaynarji shartnomasi
 - Turkmanchoy shartnomasi
 - Qorachoy shartnomasi
 - Guliston shartnomasi
- Buyuk Britaniya Eronning og'ir ahvolidan foydalanib, ...Eronni noteng shartnoma imzolashga majbur etdi.
 - 1841-yilda
 - 1848-yilda
 - 1840-yilda
 - 1855-yilda
- Bobiylar qo'zg'oloni kimlarga qarshi qaratilgan edi?
 - shoh tuzumiga, zulmiga va yer egaligiga
 - chet el bosqinchilariga
 - Hamma javoblar to'g'ri

- D) zodagonlarga va katta yer egalariga
10. Bobiylar qo'zg'oloni ishtirokchilarini aniqlang.
- A) hunarmandlar, mayda savdogarlar, shahar kambag'allari va dehqonlar
- B) sanoat ishchilari, shifokorlar, dehqonlar va hunarmandlar
- C) sanoat ishchilari, o'qituvchilar, savdogarlar va dehqonlar
- D) hunarmandlar, huquqshunoslar, shahar kambag'allari va o'qituvchilar
11. Bobiylar qo'zg'oloni bo'lib o'tgan yillarni ko'rsating.
- A) 1848-yildan 1850-yil o'rtalarigacha
- B) 1847-yildan 1850-yil boshlarigacha
- C) 1849-yildan 1851-yil boshlarigacha
- D) 1846-yildan 1848-yil oxirlarigacha
12. XIX asr o'rtalarida yuz bergan Erondagi Bobiylar qo'zg'oloni yetakchisini aniqlang?
- A) Mazdak ibn Hamdadon
- B) Do'stmuhammadxon
- C) Hoshim ibn Hakim
- D) Sayid Ali Muhammad
13. "1819-yil Sheroz shahrida mayda savdogar oilasida tu'ilib, 1844-yilda o'zini "Bob" deb atay boshlaydi" - gap kim haqida ketmoqda?
- A) Muhammad Ali Iskandariy
- B) Mazdak ibn Hamdadon
- C) Sayid Ali Muhammad
- D) Hamid Karzay Sheroziy
14. XIX asr o'rtalarida Eronda yuzaga kelgan Bobiylik ta'limotidagi "Bob" - so'zi bu ...
- A) (turkcha -olov, quyosh) - ma'naviy yetuklik sari oq yo'l
- B) (arabcha -eshik, darvoza) - haqiqat va adolatga olib boruvchi eshik
- C) (hindcha -nur, yorug'lik) - ezgulik va istiqbolga olib boruvchi nur
- D) (forscha -temir, qalqon) - qalqondek matonatlilik ramzi
15. Bobiylik ta'limoti asoslari ...nomli kitobda yozilgan edi.
- A) Bobnoma
- B) Xushxabar
- C) Bayon
- D) Axloqiyot
16. Bobiylar qo'zg'oloni yengilishi sabablari xato berilgan javoblarni aniqlang.
- A) shoh qo'shini hujumini kutib turish taktikasini tanlagan edilar
- B) islom dini asoslariga zid edi
- C) bosib olingan joylarda o'zaro nizolar vujudga keldi
- D) puxta uyushtirilmagan tarqoq holda olib borildi
17. ...shahrining katta ahamiyatga ega ekanligini unutmagan Buyuk Britaniya 1853-yilda Eronni ...bo'lgan da'vosidan voz kechishga majbur etdi.
- A) Mashhad
- B) Hirot
- C) G'azna
- D) Kobul
18. Eron Hirot shahrini qachon bosib oldi?
- A) 1856-yilda
- B) 1858-yilda
- C) 1853-yilda
- D) 1857-yilda
19. Buyuk Britaniya nima uchun 1856-yilda Eronga urush e'lon qildi?
- A) Eron chet ellik savdogarlarni mamlakatga kiritmaganligi uchun
- B) Hamma javoblar to'g'ri
- C) Eron Hirot shahrini bosib olganligi uchun

- D) Buyuk Britaniya harbiy ba'zalariga shikast yetkazganligi uchun
20. 1857-yilda Buyuk Britaniya - Eron tinchlik shartnomasi qayerda imzolandi?
- A) Parijda
 - B) Londonda
 - C) Istanbulda
 - D) Tehronda
21. XIX asrda Eronda mavjud bo'lgan mahfiy kengash lavozimlarini ta'rifi bilan to'g'ri joylashtiring.
- 1.Sadr a'zam 2.Amin ad-davla 3.Hakimboshi a) Moliya va ichki ishlar vaziri b) bosh vazir c) saroy bosh tabibi
- A) 1-c, 2-a, 3-b
 - B) 1-a, 2-b, 3-c
 - C) 1-b, 2-a, 3-c
 - D) 1-b, 2-c, 3-a

37-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Afrika xalqlari (23)

Testlar

- Afrika qit'asini nima uchun qora qit'a deb ham atashadi?
 - har bir qit'alarni rang bilan belgilash urf bo'lganligi uchun
 - "Qora oltin" - yani neftga boy bo'lganligi uchun
 - aholisi qora mehnati uchun
 - katta qismi negr irqiga mansub bo'lganligi uchun
- XIX asrda Afrika xalqlaridagi qaysi davlatlarda monarxiya tuzumi qaror topgan edi? 1.Angola 2.Efiopiya 3.Misir 4.Tunis 5.Marokash 6.Kongo 7.Sudan 8.JAR 9.Madakaskar
 - 1, 2, 3, 4, 5, 6
 - 3, 4, 5, 6, 7, 8
 - 2, 3, 4, 5, 7, 9
 - 2, 3, 4, 5, 6, 7
- XIX asrda Afrikadagi qaysi davlatda yashovchi bushmenlar tosh davri odamlari kabi hayot kechirganlar?
 - Misir
 - Tunis
 - Angola
 - Kongo
- G'arbiy Afrikadagi qaysi davlatlar eng qadimgi davlatlar hisoblanganlar?
 - Monroviya va Efiopiya
 - Gana va Mogadisho
 - Gana va Mali
 - Songai va Aksum
- XIX asrda Afrikada qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan xalqlar asosan nimalarni yetishtirganlar?
 - makkajo'xori, sholi va kakao
 - qahva, yeryong'oq va kakao
 - yeryong'oq, makkajo'xori va qahva
 - mandarin, qahva va shirinliklar
- Qul savdosi uchun Afrikadan odam ovlash qachongacha davom etdi?
 - XIX asrgacha
 - XX asrgacha
 - XVIII asr oxirlarigacha
 - XIX asr o'rtalarigacha
- Afrikadagi eng muhim qul savdo bazalari qayerda joylashgan edi?
 - Buyuk Britaniya mustamlakalari JAR va Misrda
 - Fransiya mustamlakalari Madakaskar va Senegalda
 - Belgiya mustamlaksi Kongoda
 - Portugaliya mustamlakalari Angola va Mozambikda
- Afrikada yangi Liberiya davlati tashkil topishi nima bilan bog'liq?
 - AQSHda qulchilikka qarshi kurash bilan bog'liq
 - O'zaro qabilalar ittifoqqa birlashishi bilan bog'liq
 - Barcha javoblar to'g'ri
 - Buyuk davlatlar homiyligi asosida
- Qachon AQSHda erkinlikka erishgan qora tanli qullarni AFrikaga joylashtirish boshlandi?
 - 1826-yildan
 - 1818-yildan
 - 1847-yildan
 - 1816-yildan

10. Qachon AQSH Gvineya qirg'oqlaridan 13 ming kv.km yer sotib oldi?
A) 1818-yilda
B) 1826-yilda
C) 1821-yilda
D) 1847-yilda
11. Qachon Afrikada Liberiya davlati tuzilganligi e'lon qilindi?
A) 1860-yilda
B) 1843-yilda
C) 1857-yilda
D) 1847-yilda
12. XIX asrda ham Efiopiyada ...
A) mustamlakalar bosib olish davom etdi
B) rivojlangan davlatlar andazalari joriy etila boshlandi
C) o'rta asr munosabatlari hukm surardi
D) mustahkan qirol hokimiyati mavjud edi
13. Efiopiyada kichik yer egasining o'g'li Kasa qachon o'zini imperator deb e'lon qildi?
A) 1857-yilda
B) 1856-yilda
C) 1853-yilda
D) 1855-yilda
14. Qaysi davlatning aralashuvi bilan 1867-yilda Efiopiyada Kasa hokimiyati ag'darildi?
A) Fransiya
B) AQSH
C) Misr
D) Buyuk Britaniya
15. Buyuk Britaniyaning aralashuvi bilan qachon Efiopiyada Kasa hokimiyati ag'darildi?
A) 1857-yilda
B) 1867-yilda
C) 1858-yilda
D) 1868-yilda
16. Qachon Buyuk Britaniya Janubiy Afrikadagi gollandlarga qarashli Kap koloniyasini bosib oldi?
A) XIX asr boshlarida
B) XX asr bo'sag'asida
C) XIX asr oxirlarida
D) XVIII asr oxirlarida
17. Burlar - Janubiy Afrikadagi qaysi davlat mustamlakachilarining avlodlari edi?
A) ispan, portugal va golland
B) golland, fransuz va nemis
C) rus, ingliz va fransuz
D) polyak, shved va nemis
18. Afrikadagi Erkin Oranj Respublikasi va Transvaal davlatlarini kimlar tuzganlar?
A) Inglizlar
B) Burlar
C) Nemislar
D) Gollandlar
19. Buyuk Britaniya Afrikadagi Erkin Oranj Respublikasi va Transvaal davlatlarini vaqtincha bo'lsada, qachon tan olgan edi?
A) 1850-yilda Transvaalni va 1852-yilda Erkin Oranj Respublikasini
B) 1854-yilda Transvaalni va 1852-yilda Erkin Oranj Respublikasini
C) 1854-yilda Transvaalni va 1856-yilda Erkin Oranj Respublikasini
D) 1852-yilda Transvaalni va 1854-yilda Erkin Oranj Respublikasini
20. Misrda XVIII-XIX asr chegarasida mamluk jangchilari bu -

- A) qullikka tushirilgan Gruziya va Shimoliy Kavkaz aholisi
 - B) Hamma javoblar to'g'ri
 - C) Chet eldan ko'chib kelgan Liviya va Somali savdogarlari
 - D) immigrantlar orasidan tuzilgan qo'shin
21. Fransiya Jazoirni bosib olgach, kim milliy-ozodlik urushida alohida rol o'ynadi?
- A) Sayid Jumayniy
 - B) Abdulqodir
 - C) Habib marg'uba
 - D) Sayid Ali Muhammad
22. Fransiya Jazoirni bosib olgach, milliy-ozodlik urushida alohida rol o'ynagan Abdulqodir qo'shini qachon tor-mor keltirildi va u jangda halok bo'ldi?
- A) 1847-yilda
 - B) 1852-yilda
 - C) 1844-yilda
 - D) 1832-yilda
23. Qachon Afrikaning mustamlaka sifatida taqsimlanishi tugallandi?
- A) XVIII asr oxiri - XIX asr boshlari
 - B) XIX asr boshlari - XIX asr o'rtalari
 - C) XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida
 - D) XIX asr o'rtalari - XIX asr oxiri

38-Yevropada XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda ijtimoiy harakatlar (15)

Testlar

- Ijtimoiy harakat bu -
 - jamiyatdagi xususiy mulkni umumxalq mulkiga aylantirish orqali kishilarga forovonlik beradigan harakatdir
 - iqtisodi nochor mamlakat xalqlariga xayrli ko'mak berish harakatidir
 - jamiyatning mehnatkash aholisi katta qismining ehtiyojlari va manfaatlari yo'lida ixtiyoriy ravishda xizmat qilishdir
 - mamlakat aholisining urf-odatları va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilish harakatidir
- Sotsialistik jamiyat bu -
 - jamiyatdagi xususiy mulkni umumxalq mulkiga aylantirish orqali kishilarga forovonlik beradigan jamiyatdir
 - iqtisodi nochor mamlakat xalqlariga xayrli ko'mak berish jamiyatidir
 - mamlakat aholisining urf-odatları va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilish jamiyatidir
 - jamiyatning mehnatkash aholisi katta qismining ehtiyojlari va manfaatlari yo'lida ixtiyoriy ravishda xizmat qilishdir
- "Sotsializm" atamasi qachon paydo bo'lga?
 - XVIII asr oxirlarida Germaniyada
 - XVIII asr oxirlarida Buyuk Britaniyada
 - XIX asrning 30-yillarida Rossiyada
 - XIX asrning 30-yillarida Fransiyada
- Utopik sotsializmning G'arbiy Yevropadagi yirik vakillari kimlar edi?
 - fransiyalik Karl Marks, Sharl Furiye va Buyuk Britaniyalik Romen Rollalar edi
 - fransiyalik Sen Simon, Sharl Furiye va Buyuk Britaniyalik Robert Ouenlar edi
 - fransiyalik Sen Simon, Aluer Levenguk va Buyuk Britaniyalik Robert Ouenlar edi
 - fransiyalik Sen Simon, Sharl Furiye va Buyuk Britaniyalik Fririx Ebertlar edi
- Utopik sotsializm vakili Sh.Furiye o'z jamoasini nima deb atagan?
 - Falanga
 - Ezgulik jamiyati
 - Taypin Tyango
 - Bayon
- Utopik sotsializmning qaysi vakili hamma mendan o'rnak oladi deb, o'z fabrikasida ishlayotganlarga yaxshi mehnat sharoitini yaratib berdi?
 - Sharl Furiye
 - Sen-Simon
 - Karl Marks
 - Robert Ouen
- Germaniyada utopik sotsializmning yirik namoyondalari kimlar edi?
 - Karl Marks va Fririx Engels
 - V.Belinskiy va A.Gersen
 - Robert Ouen va Tomas Mor
 - Sen-Simon va Sharl Furiye
- Utopik sotsializmning qaysi vakillari kapitalizmni kuch bilan ag'darib tashlash tarafdori edilar?
 - Robert Ouen va Tomas Mor
 - Sen-Simon va Sharl Furiye
 - Karl Marks va Fririx Engels
 - V.Belinskiy va A.Gersen
- Rossiya imperiyasidagi ijtimoiy harakatning yetakchi arboblari kimlar edilar?
 - Sen-Simon va Sharl Furiye

- B) Karl Marks va Fririx Engels
C) Robert Ouen va Tomas Mor
D) V.Belinskiy va A.Gersen
10. Utopik sotsializm vakillari V.Belinskiy va A.Gersenlar qaysi yillarda ijod qilganlar?
A) XIX asrning 30-yillarida
B) XIX asrning 50-yillarida
C) XIX asrning 60-yillarida
D) XIX asrning 40-yillarida
11. Utopik sotsializmning qaysi vakili Rossiyada podsho hokimiyati va krepostnoylikni tugatish lozim deb hisobladi?
A) A.Gersen
B) V.Belinskiy
C) J.Maksum
D) K.Marks
12. Utopik sotsializmning qaysi vakili Rossiyada podsholik hokimiyatiga va krepostnoylikga qarshi kurash xalq orasida ma'rifat tarqatishdan boshlanishi kerak deb hisobladi?
A) J.Maksum
B) K.Marks
C) A.Gersen
D) V.Belinskiy
13. Utopik sotsializmning qaysi vakili Rossiyada dehqonlar jamoasi sotsializmning asosi bo'lishi lozim deb hisobladi?
A) K.Marks
B) A.Gersen
C) J.Maksum
D) V.Belinskiy
14. Utopiya bu -
A) (inglizcha - umumiy, jami)
B) (lotincha - xayoliy, yo'q joy)
C) (yunoncha - bo'shliq, kovak)
D) (lotincha - uydirma, ertak)
15. Utopiya so'zi nimadan olingan?
A) XVII asrda yashagan Rossiyalik adib X.Korolkovning "Utopiya" asaridan
B) XVI asrda yashagan Angliyalik adib Tomas Morning "Utopiya" asaridan
C) XVII asrda yashagan Angliyalik adib Jen Lokkning "Utopiya" asaridan
D) XVI asrda yashagan Fransiyalik adib Jon Kristofning "Utopiya" asaridan

Testlar

- Quyidagi olim va yozuvchilarning yashab o'tgan yillarini to'g'ri joylashtiring. 1.I.Nyuton 2.G.V.Leybnis 3.Daniel Defo 4.Jonatan Svift 5.P.Bomarshe a) 1660-1731 b) 1646-1716 c) 1642-1727 d) 1732-1799 e) 1667-1745
 - 1-c, 2-b, 3-a, 4-e, 5-d
 - 1-b, 2-e, 3-c, 4-d, 5-a
 - 1-e, 2-a, 3-d, 4-b, 5-c
 - 1-d, 2-c, 3-d, 4-a, 5-e
- Ingliz olimi I.Nyuton necha yoshga kirganida fan uning asosiy mashg'ulotiga aylandi?
 - 16
 - 12
 - 20
 - 14
- Ingliz olimi I.Nyutonning qanday qonunlarni yaratishi fizika fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi hisoblanadi?
 - Hamma javob to'g'ri
 - yetarli asos qonuni, differensial va integral hisoblash va mayatnikli soatni
 - butun olamtortishish, mexanik harakat va nurning tarqalish qonunlari
 - zanjirning bir qismi uchun Amper qonuni va nurning tarqalish qonunlari
- Isaak Nyutonning 1671-yildagi ixtirosini aniqlang.
 - katta teleskoplardan yaxshi ko'rsatadigan kichik oynali teleskopni ixtiro qildi
 - butun olam tortishish qonuni ixtiro qildi
 - differensial va integral hisoblashni ixtiro qildi
 - nurning tarqalish qonuni kashf etdi
- Isaak Nyuton 30 yoshiga yetmasdan ...
 - Chet el mamlakatlariga safarda bo'lib qaytdi
 - Qirollik jamiyati a'zosi etib saylandi
 - Fan uning asosiy mashg'ulotiga aylandi
 - London Fanlar Akademiyasiga asos solgan
- G.V.Leybnis qachon Berlin Fanlar Akademiyasiga asos soldi?
 - 1710-yilda
 - 1705-yilda
 - 1688-yilda
 - 1700-yilda
- Qaysi olim Fizikada yetarli asos qonuni va Matematikada differensial va integral hisoblashni kashf etdi?
 - I.Nyuton
 - A.Leveguk
 - M.V.Lomonosov
 - G.V.Leybnis
- Quyidagi qaysi olim : "Umumiy, zaruriy bilimning asosi faqat aql bo'lishi mumkin" - deb yozgan edi?
 - G.V.Leybnis
 - A.Leveguk
 - M.V.Lomonosov
 - I.Nyuton
- Buyuk rus shoiri A.S.Pushkin kim haqida: "Tarixchi, notiq, mehanik, kimyochi, minerolog, rassom va shoir" - deb ta'riflagan edi?
 - A.Leveguk

- B) G.V.Leybnis
 C) Mendeeleyev
 D) M.V.Lomonosov
10. M.V.Lomonosovning ta'lim olgan joylarini to'g'ri ko'rsating.
 A) Moskvadagi Slavyan-yunon-lotin akademiyasida, so'ng Moskva Davlat Unversitetida ta'lim oldi
 B) Orenburgdagi Huquqshunoslik va falsafa akademiyasida, so'ng Avstriya universitetlarida kimyo va biologiya fanlaridan ta'lim oldi
 C) Moskvadagi Slavyan-yunon-lotin akademiyasida, so'ng Germaniya universitetlarida kimyo va metallurgiya fanlaridan ta'lim oldi
 D) Sankt-Peterburgda Slavyan-yunon-lotin akademiyasida, so'ng Yevropa mamlakatlari oliygohlarida ta'lim oldi
11. M.V.Lomonosov qaysi fanga asos solgan edi?
 A) Kimyoviy biologiya
 B) Fizikaviy kimyo
 C) Elementar fizika
 D) Organik kimyo
12. M.V.Lomonosov qaysi chet el davlatlarining Fanlar Akademiyasi faxriy a'ziligiga saylangan edi?
 A) Kembrij va Parij
 B) Germaniya va Finlandiya
 C) Avstriya va Neapol
 D) Shvetsiya va Bolonya
13. Qaysi olim 300 marta kattalashtirib ko'rsatadigan mikroskop yaratdi?
 A) G.V.Leybnis
 B) M.V.Lomonosov
 C) I.Nyuton
 D) A.Levenjuk
14. Golland olimi A.Levenjuk qachon 300 marta kattalashtirib ko'rsatadigan mikroskopni yaratdi?
 A) XIX asrda
 B) XVIII asrda
 C) XVI asrda
 D) XVII asrda
15. Ingliz shifokori E.Jenner qachon chechakka qarshi emlash usulini kashf etdi?
 A) XVI asrda
 B) XVII asrda
 C) XIX asrda
 D) XVIII asrda
16. Ingliz shifokori A.Jenner chechak kasali qaysi hayvondan yuqsa, (immunitet hosil bo'lib) yengil o'tishini aniqladi
 A) tovuq
 B) qo'y
 C) har qanday hayvondan
 D) sigir
17. Qachon teleskop orqali kuzatish natijasida Neptun sayyorasi kashf etildi?
 A) 1856-yilda
 B) 1846-yilda
 C) 1850-yilda
 D) 1840-yilda
18. 1842-yilda qaysi olimlar tajribalar yo'li bilan energiyaning saqlanish qonuni asoslab berdilar?
 A) D.Joul va Y.Mayerlar
 B) K.Furye va J.Federikolar
 C) Romen Rolla va Jon Kristoflar

- D) I.nyuton va G.V.Leybnislar
19. D.I.Mendeleyev qachon elementlar davriy tizimini yaratdi?
A) 1869-yilda
B) 1889-yilda
C) 1880-yilda
D) 1846-yilda
20. XIX asr jahon tarixida qanday asr nomi bilan kirdi?
A) Temir yo'l va Transport asri
B) Temir va bug' asri
C) Harbiylashtirish asri
D) Telekommunikatsiya asri
21. 1840-yilda jahon mamlakatlarida temiryo'llar uzunligi 7700 kmni tashkil etib, bunda qaysi mamlakatlarning hisssasi katta edi?
A) Fransiya va AQSH
B) Germaniya va Buyuk Britaniya
C) Rossiya va Fransiya
D) Buyuk Britaniya va AQSH
22. Germaniya va Fransiya temiryo'llar qurilishi qachondan boshlandi?
A) XIX asrning 60-yillaridan
B) XX asr boshlaridan
C) XIX asrning 40-yillaridan
D) XIX asrning 30-yillaridan
23. 1870-yilga kelib, dunyoda necha km temiryo'l qurilgan edi?
A) 345 ming km
B) 300 ming km
C) 180 ming km
D) 200 ming km
24. Qachondan dunyoda bug' mashinalari bilan harakatga keltiriladigan g'ildirakli daryo paroxodlaridan keng foydalanish boshlandi?
A) XIX asrning 40-yillaridan
B) XX asr boshlaridan
C) XIX asrning 20-yillaridan
D) XIX asrning 30-yillaridan
25. Qachonga kelib g'arb mamlakatlarida yelkanli dengiz floti o'z o'rnini paroxodlarga bo'shatib bera boshladi?
A) XIX asrning 50- 60 yillaridan
B) XIX asrning 30-40 yillaridan
C) XX asr boshlaridan
D) XIX asrning 40-50 yillaridan
26. Qachon Buyuk Britaniyadan Amerikaga Atlantika okeani orqali dastlabki telegraf kabeli o'tkazildi?
A) XIX asrning 30-yillari boshida
B) XIX asrning 60-yillari oxirida
C) XVIII asrning oxirlaridan
D) XIX asrning o'rtalaridan

Testlar

- Daniel Defoga chinakam shuhrat keltirgan asarni aniqlang.
 - "Robinson Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" asari
 - "Faust" asari
 - "Figaroning uylanishi" komediyasi
 - "Gulliverning sayohatlari" romani
- "Robinson Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" asarida ...
 - Portugaliyalik dengizchi F.Magellanning kimsasiz oroldagi 5 oy sarguzashtlari 25 yillik g'aroyib sarguzashtlarida bayon etilgan
 - Irlandiyalik dengizchi G.Yuveroning Malta orolidagi 6 oy sarguzashtlari 31 yillik g'aroyib sarguzashtlarida bayon etilgan
 - Angliyalik dengizchi Tomas Morning kimsasiz oroldagi 4,5 oy sarguzashtlari 23 yillik g'aroyib sarguzashtlarida bayon etilgan
 - Shotlandiyalik dengizchi A.Selkrikning kimsasiz oroldagi 4 oy sarguzashtlari 28 yillik g'aroyib sarguzashtlarida bayon etilgan
- 1726-yilda ...
 - "Robinson Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" asari dunyo yuzini ko'rdi
 - "Figaroning uylanishi" komediyasi teatrlashtirildi
 - Robinson Kruzo o'z vataniga qaytib keldi
 - "Gulliverning sayohatlari" romani bosmadan chiqdi
- Lyudovik XVI qaysi asar haqida: "Buni sahnada qo'yish uchun Bastiliyani vayron qilish kerak" - deb xitob qilgan edi?
 - "Faust" asari
 - "Gulliverning sayohatlari" romani
 - "Matveyning uqubatlari" asari
 - "Figaroning uylanishi" komediyasi
- Qaysi asar qahramonlaridan biri: "Menga xuddi o'zimdek bir necha shoir kishilarni beringlar va Germaniya Respublika bo'ladi" - deb aytgan edi?
 - Jeyms Tibo
 - Karl Moor
 - Aubert Vaurtsey
 - Romen Rolla
- "Inson qahrliroq siz o'ylagandan, Asrlik uyquning yo'lin buzib u O'zining huquqin so'rar qaytadan" - satrlari kimniki?
 - Aubert Vaurtsey
 - Romen Rolla
 - Karl Moor
 - Jeyms Tibo
- Mashhur "Faust" asarini kim avlodlariga meros qoldirdi?
 - K.Moor
 - I.Gyote
 - Romen Rolla
 - Jeyms Tibo
- I.Gyotening 60 yil davomida yaratgan falsafiy asarini aniqlang.
 - "Matveyning uqubatlari" asari
 - "Gulliverning sayohatlari" romani
 - "Faust" asari
 - "Figaroning uylanishi" komediyasi
- Fransiyalik yozuvchi Onore de Balzak o'z asarlarini ...degan umumiy nom ostida yaratdi.

- A) "Figaroning uylanishi"
 B) "Insoniy komediya"
 C) "Rekviyem"
 D) "Faust"
10. Quyidagi yozuvchilarning yashab o'tgan yillarini to'g'ri joylashtiring. 1.F.Shiller 2.A.S.Pushkin 3.O.Balzak 4.I.Gyote a) 1749-1832 b) 1799-1837 c) 1799-1850 d) 1759-1805
 A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d
 B) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c
 C) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a
 D) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a
11. Qaysi yozuvchi Fransiya elchisi o'g'li Dantes bilan duelda halok bo'lgan?
 A) F.Shiller
 B) A.S.Pushkin
 C) I.Gyote
 D) O.Balzak
12. Quyidagi nemis kompozitorlarini yashab o'tgan yillari bilan to'g'ri joylashtiring. 1.I.Bax 2.L.Betxoven 3.V.Motsart a) 1685-1750 b) 1756-1791 c) 1770-1828
 A) 1-a, 2-c, 3-b
 B) 1-c, 2-a, 3-b
 C) 1-b, 2-a, 3-c
 D) 1-c, 2-b, 3-a
13. I.Baxning xor, solistlar va orkestr uchun yozgan ulkan asarini aniqlang.
 A) "Rekviyem"
 B) "Figaroning uylanishi"
 C) "Matveyning uqubatlari"
 D) "Faust"
14. "XVIII asrning haqiqiy mo'jizasi" deb atalgan kompozitorni aniqlang.
 A) L.Betxoven
 B) Karl Moor
 C) I.Bax
 D) V.Motsart
15. "U 3 yoshidan boshlab musiqa o'rgana boshlagan, 5 yoshidan o'zining birinchi orkestrini tuzgan, 12 yoshida yozgan operasi Milan teatrida qo'yilgan ..." - gap qaysi kompozitor haqida ketmoqda?
 A) L.Betxoven
 B) I.Bax
 C) Karl Moor
 D) V.Motsart
16. V.Motsartning so'nggi asari berilgan qatorni toping.
 A) "Qahramonnoma simfoniyasi" asari
 B) "Figaroning uylanishi" komediyasiga bastalangan opera qo'shiqlari
 C) "Fantaziya yo'lida sanata" asari
 D) "Rekviyem" (Sokinlik)
17. L.Betxovenning asarlari berilgan qatorni toping.
 A) "Figaroning uylanishi" komediyasiga bastalangan opera qo'shiqlari va "Rekviyem" (Sokinlik) asari edi
 B) "Faust" va "Rekviyem" asarlari edi
 C) "Fantaziya yo'lida sanata" va "Qahramonnoma simfoniyasi" asarlari
 D) "Matveyning uqubatlari" va "Figaroning uylanishi" asarlari edi

JAVOBLAR

001-Kirish_Buyuk geografik kashfiyotlar (26)

Savollar va javobi

1. Industrial jamiyatning G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada qaror topa borishi qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
 XVI-XIX asrlar
2. Buyuk geografik kashfiyotlar amalga oshirilgan davrni aniqlang.
 XV asr oxiri -XVII asr o'rtalari
3. Xristofor Kolumb qayerlik bo'lgan?
 Genualik
4. Xristofor Kolumb tug'ilgan yil...
 Muhammad Shayboniyxon tavallud topdi
5. Jamiyatning xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti va demokratik tartiblariga asoslangan shakli qanday nomlanadi?
 kapitalizm
6. Osiyoda yangi jamiyat, ya'ni kapitalizmni shakllanishi nima uchun uzoq davrni qamrab olgan edi?
 Osiyoda an'anaviy jamiyatning hukm surganligi
7. Odamzod insoniyatning butun tarixi davomida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyligining necha foizini XVI-XX asrlarda yaratgan edi?
 90
8. XIX asr 60-yillari oxirlariga kelib.....
 G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada sanoat inqilobi nihoyasiga yetdi
9. Buyuk geografik kashfiyotlarning eng asosiy sababi nimada edi?
 Yevropada tovar ishlab chiqarishning o'sishi
10. Buyuk geografik kashfiyotlarning asosiy tashabbuskorlari qaysi davlat dengizchilari bo'lishgan edi?
 Ispaniya va Portugaliya
11. X.Kolumbning Hindistonga g'arb tomondan borish mumkinligi to'g'risidagi taxminlari kim tuzgan xaritaga asoslangan edi?
 Toskanelli
12. Ispaniya qiroli va X.Kolumb o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan....
 hamma javob to'g'ri
13. "Muqaddas Xaloskor" nomi bilan mashhur bo'lgan orolni belgilang.
 San Salvador
14. Kolumb tomonidan ochilgan yangi hududlarni Hindiston emas, Yangi qit'a ekanligini isbotlab bergan shaxsni aniqlang.
 A.Vespuchchi
15. Yangi dunyoni A.Vespuchchi nomi bilan Amerika deb atalishini kim taklif qilgan edi?(1507 yilda)
 Valdzemyuller
16. 1515 yilda Yangi dunyo Amerika deb atalgan birinchi globus qayerda yaratilgan edi?
 Germaniya
17. Qachondan boshlab barcha xaritalardan Kolumb kashf etgan hududlarni 'Amerika' deb atash rusum bo'ldi?
 1569-yildan
18. 1519-1522-yillarda kim boshchiligidagi ekspeditsiya dunyo aylana birinchi sayohatni amalga oshirdi?

- F.Magellan
- 19. L.V.Torres tomonidan Avstraliya kashf qilingan yilni aniqlang.
- 1605 yil
- 20. Admiral so'zi qaysi tildan olingan?
- arab
- 21. Dunyo bo'ylab birinchi dengiz sayohatini kim va qachon amalga oshirgan edi?
- F.Magellan (1519-22 yillar)
- 22. Abu Rayhon Beruniy o'zining qaysi asarida Amerika qit'asi mavjudligini taxmin qilgan edi?
- "Hindiston"
- 23. Amerika kashf qilingan kun sifatida nishonlanadigan kunni aniqlang.
- 12 oktyabr
- 24. Osiyo qit'asi qirg'oqlari Atlantika okeanining g'arbiy sohilida deb hisoblagan olimni aniqlang.
- P.Toskanelli
- 25. 1499-1501-yillarda portugaliyaliklar ekspeditsiyasi tarkibida Braziliya qirg'oqlarini tadqiq etgan olimni aniqlang.
- A.Vespuchchi
- 26. X.Kolumb yangi ochiladigan yerdan olinadigan daromadning qanchasiga egalik qilishi kerak edi?
- 1/10 qismiga

002-Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi (15)

Savollar va javobi

1. Ispaniya qiroli mahalliy hindularni qulga aylantirishni taqiqlab qo'yuvchi qonun chiqargan sanani aniqlang.
- 1512 yil
2. Qachondan boshlab mustamlakachi davlatlar Afrikadan Amerikaga qullar olib kela boshlagan edilar?
- XVI asr o'rtalaridan
3. Yangi yerlarni egallashda konkista siyosati olib borilgan yillarni aniqlang.
- 1510 yildan–XVII asr o'rtalarigacha
4. Ispaniya tomonidan 1679-yilga kelib qaysi davlat hududi to'liq bo'sib olingan edi?
- Mayyalar davlati
5. Yangi Ispaniya vitse-qirollarigiga kirmagan hududni aniqlang.
- Chili
6. Ispanlar tomonidan tashkil etilgan Peru vitse-qirolligiga kirmagan hududni belgilang.
- Braziliya
7. Yangi Ispaniya va Peru vitse-qirollari necha yil muddatga saylanganlar?
- 3 yil
8. Ispaniya mustamlakalarida boshqaruvchi etib tayinlangan vitse-qirollarga nimalar taqiqlangan edi?
- hamma javoblar to'g'ri
9. Ispaniya mustamlakalari bilan olib boriladigan savdo qanday tashkilot tomonidan nazorat qilingan?
- Sevilya savdo palatasi
10. Ispaniya Filippin orollari ustidan hokimiyatni o'rnatgan yilni aniqlang.
- 1529 yil
11. Portugaliya dengiz sayyohi Kabral 1500 yilda.....ni kashf qildi va uni Portugaliya qiroli mulki deb e'lon qildi.
- Braziliya
12. Ispaniyaning "Yengilmas Armada"si ingliz floti tomonidan tor-mor qilingan sanani aniqlang.

- 1588 yil
- 13. Inglizlarning Shimoliy Amerikadagi birinchi mustamlakasini aniqlang.
- Virginiya
- 14. Konkista so'zining ma'nosini aniqlang.
- zabt etish, bosib olish
- 15. Angliyada Hindiston va boshqa mustamlakalar bilan aloqa olib borish uchun Ost-Indiya kompaniyasi tashkil etilgan sanani aniqlang.
- 1600 yil

003-Yangi davr boshlarida G*arbiy Yevropa davlatlari (19)

Savollar va javobi

1. XVI-XVII asrlarda butun aholining necha foizini dehqonlar tashkil etgan?
 - 88 foizini
2. Yevropa aholisi 1650 yilda qanchani tashkil etgan edi?
 - 100 million
3. XVII asr o'rtalariga kelib kimlar burjuaziyaning yuqori qatlamiga aylangan edilar?
 - savdogar-negosiantlar va bankirlar
4. Nechanchi asrga kelib o'rta asr yarmarkalari o'z ahamiyatini yo'qotdilar?
 - XVII asr
5. Yangi tarix davrida jahon savdosining markaziga aylangan davlatlarni aniqlang.
 - Angliya va Gollandiya
6. Angliyaga paxta olib kelish huquqi qaysi kompaniyaga tegishli edi?
 - Levantiya
7. Angliyaga qalampir olib kelish huquqi qaysi kompaniyaga berilgan edi?
 - Ost-Indiya
8. Angliyaning Rossiya bilan savdo olib boruvchi kompaniyasini aniqlang.
 - Moskva
9. Ost-Indiya hududlari bu -
 - Hindiston hududi
10. Vest-Indiya hududlari bu-...
 - Karib dengizi orollari
11. XVII asr boshlarida Angliya savdo kompaniyalari qaysi hududlarda o'z nazoratlarini o'rnatdilar?
 - Erondan Shimoliy Amerikagacha, Shvetsiyadan Hindistongacha
12. XVII asrga kelib manufaktura ishlab chiqarish qaysi davlatlarda xo'jalikning asosiy shakliga aylandi?
 - Angliya va Gollandiyada
13. XVII asrga kelib manufaktura ishlab chiqarish qaysi davlatda rivojlanish bosqichiga kirdi?
 - Fransiya
14. Lotincha "taqsimlanadigan narsa" ma'nosini beradigan atamani aniqlang.
 - dividend
15. Yangi davrda ulgurji savdo bilan shug'ullanadigan savdogarlar nima deb atalgan?
 - negosiant
16. Yunoncha "tanho sotaman" ma'nosini beruvchi so'zni aniqlang.
 - monopoliya
17. 1607 yilda o'z aksiyadorlariga 500% miqdorida dividend to'lagan kompaniyani aniqlang.
 - Ost-Indiya
18. Mortira bu -
 - artilleriya turi

19. Lotincha “ochiq, aniq ravshan” ma’nosini beruvchi so’zni aniqlang.

patent

004-Yevropada reformatsiya (12)

Savollar va javobi

1. Reformatsiya bu.....

hamma javob to’g’ri

2. XVI asrda markazlashgan Angliya va Fransiyadan farqli o'laroq...

Germaniyada siyosiy tarqoqlik hukm surar edi

3. Germaniyada imperatorni saylab qo'yadigan 7 ta knyazdan nechitasi arxiyepiskop edi?

3 tasi

4. Quyidagi qaysi davlatda hukmdorni 7 ta knyazdan saylashgan?

Germaniyada

5. Martin Lyuter qaysi universitetning ilohiyot professori bo'lgan?

Vittenberg

6. Qachon Martin Lyuter o'zining "95 tezis" deb nomlangan xitobnomasini cherkov eshigiga yopishtirib qo'ydi?

1517-yilda

7. Martin Lyuter o'zining xitobnomasida nimani qattiq qoralagan edi?

indulgeniya savdosi

8. Germaniyada 1524-yilda boshlangan dehqonlar qo'zg'oloniga kim boshchilik qilgan edi?

Tomas Myunser

9. Qachon Germaniya Reyxstagi Lyuterchi knyazlar talabi bilan har bir nemiz knyazi o'zi va fuqarolari uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi?

1526 yil

10. Protestant knyazlar va Rim papasi o'rtasida bitim tuzilgan sanani aniqlang.

1555 yil

11. Tezis so'zining ma'nosi....

qoida, isbot

12. Xristian dinida XVI asrda vujudga kelgan yo'nalishni aniqlang.

protestantlik

005-Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi (19)

Savollar va javobi

1. Angliyada qaysi hukmdor davrida butun mamlakat yagona markaz – Londonga bo'ysundirilgan edi?

Genrix VIII

2. Mutlaq monarxiya birikmasi quyidagi qaysi atamaga to'g'ri keladi?

absolutizm

3. Angliya qirol Genrix VIII Tyudor hukmdorlik yillarini aniqlang.

1509-1547-yillar

4. XVI asrda Angliyada qaysi masaladagina parlamentning roziligi shart deb qo'yilgan edi?

yangi soliq joriy qilish

5. Ingliz qirollarining parlamentning har qanday qarorini taqiqlab qo'yish imkonini beradigan huquqi qanday nomlangan?

veto huquqi

6. Angliyada mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini qaysi organ belgilar edi?

- Maxfiy Kengash
- 7. Angliyada Tyudorlar sulolasi davrida amalga oshmagan voqeani belgilang.
- Buyuk Britaniya tashkil topdi
- 8. Angliyada reformatsiyani amalga oshirgan qirolni aniqlang.
- Genrix VIII
- 9. Angliyadagi protestant cherkovi qanday nom bilan ataladi?
- anglikan
- 10. Angliyada kontrreformatsiyani amalga oshirishga uringan qirolni aniqlang.
- Mariya
- 11. Angliyada kontrreformatsiya davrida ko'pchilik protestantlar qayerga qochib ketishga majbur bo'lgan edilar?
- Shveysariya va Germaniyaga
- 12. Ingliz qirolichasi Yelizaveta I ning hukmronlik yillarini aniqlang.
- 1558-1603 yillar
- 13. Ingliz qirollaridan qay biri "Cherkov va dunyoviy ishlarning oliy hukmdori" degan unvon olgan edi?
- Yelizaveta I
- 14. Yelizaveta I ning o'limidan keyin Angliyada qaysi sulola taxtga keldi?
- Stuartlar
- 15. Angliyaning XVI asrdagi ashaddiy raqibi bo'lgan davlatni aniqlang.
- Ispaniya
- 16. Angliya qirolichasi Yelizaveta I ni qaysi qiroli "shakkok" deb atar edi?
- Ispaniya qiroli Filip II
- 17. Angliya uchun XVI asr qanday yakunlandi?
- Angliyaning Yevropaning buyuk davlati va dengiz hukmdoriga aylanishi bilan
- 18. Yelizaveta I davrida Angliya Ispaniyaga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan qaysi davlatni qo'llab-quvvatlagan edi?
- Gollandiya
- 19. Angliya taxtiga chiqishidan oldin Yakov VI Stuart qaysi davlat qiroli edi?
- Shotlandiya

006-Fransiyada mutlaq monarxiya (23)

Savollar va javobi

1. Quyidagi qaysi davlatda "Xudoning irodasi shuki, har qanday qaram bo'lib tug'ilgan o'ylab o'tirmasdan bo'ysunmog'i lozim" degan ibora mavjud edi?
- Fransiyada
2. Angliyadagi parlamentdan farqli o'laroq, Fransiyadagi General shtatlar....
- doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organga aylana olmadi
3. Fransiyada qachondan boshlab General shtatlar butunlay chaqirilmay qo'yilgan edi? (XVII asrda)
- 1614 yildan
4. Fransiyadagi viloyatlar parlamentlari orasida qaysi parlamentning obro'si juda katta bo'lgan?
- Parij
5. Fransiyaning qaysi qiroli "Davlat – bu men" degan edi?
- Lyudovik XIV
6. Qadimgi Rim davlati xudolaridan bo'lgan Yupiter haykali kimning qiyofasiga o'xshab ishlagan edi?
- Lyudovik XIV
7. XVI asr boshlarida Fransiyada....
- Lyuter ta'limotiga mos g'oya tarqaldi

8. Fransiyada protestantlar qanday nomlangan edi?
 gugenotlar
9. Fransiyaning qaysi qismida protestantlar, ya'ni gugenotlar ko'pchilikni tashkil qilar edilar?
 janubida
10. 1562-yilda kim Fransiyada gugenotlar qirg'ini uyushtirishga boshchilik qilgan edi?
 Genrix Giz
11. Fransiyada diniy urushlar davrida kim qattiq intizom o'rnatilgan katolik liga tuzgan edi?
 Genrix Giz
12. Gersog Giz qaysi fransuz qirol tomonidan o'ldirilgan edi?
 Genrix III
13. 1562 yilda gugenotlarning qayerdagi qatag'on qilinishi Fransiyada diniy urushlarni boshlab bergan edi?
 Vassida
14. XVI asrning ikkinchi yarmida qaysi davlatda 36 yildan ortiq diniy urushlar bo'lib o'tgan edi?
 Fransiyada
15. 1572 yil Parijga taklif qilingan gugenotlar kimlarning nikohiga tashrif buyurgan edilar?
 Genrix va Margaritaning
16. Genrix IV Burbon Nant ediktini imzolangan sanani aniqlang.
 1598 yil
17. Fransiyada kimlar diniy urushlar davrida "azob chekkan avliyolar" deb e'lon qilingan edilar?
 Genrix Giz va uning safdoshlari
18. Fransiya qachon qirol Genrix III o'ldirilgan edi?
 1589-yilda
19. Fransiyada 1589-yilda taxtga qaysi sulola vakillari keldilar?
 Burbonlar
20. Regent so'zining ma'nosini aniqlang.
 vaqtinchalik hukmdor
21. Diniy e'tiqodga yoki biror ta'limotga qattiq yopishib oluvchi shaxs qanday nomlanadi?
 fanat
22. Fransiyada diniy urushlarga yakun yasagan Nant edikti imzolanganidan keyin...
 hamma javob to'g'ri
23. Qirolning alohida muhim farmoni qanday nomlanadi?
 edikt

007-XVI-XVII asrlarda Rossiya (23)

Savollar va javobi

1. Rusning mug'ullarga qaramligi deyarli necha yil davom etgan edi?
 240 yil
2. Rusning mug'ullarga qaramligi qaysi yilga kelib barham topgan edi?
 1480-yilda
3. Rusda 1547-yilgacha kimlar podsho unvoniga ega bo'lganlar?
 Oltin O'rda xonlari
4. Rusda 1547-yilgacha davlat hukmdorlari qanday nomlanar edilar?
 Buyuk knyaz
5. Poytaxti Moskva bo'lgan yagona, markazlashgan Rus davlati tashkil topgan davrni aniqlang.
 XVI asrning 20- yillari
6. 1547 yildan boshlab...
 Rusda hukmdorlar podsho deb atala boshlandi
7. Yosh podsho Ivan IV o'z huzurida qanday maslahat kengashini tuzgan edi?
 Saylanma Rada

8. Ivan IV ichki siyosatda kimlarning mavqeini zaiflashtirish uchun kurashgan edi?
 boyarlar
9. Rusda davlatga chernosotlar deb kimlarga aytilgan?
 shaharlik savdogarlar
10. Posad kishilari bular....
 shaharlik savdogarlar
11. Rossiyada feodallar turli qatlamlari vakillarining birinchi yig'ilishi chaqirilgan yilni aniqlang.
 1549 yil
12. Ivan IV qachon oprichnina siyosatini o'tkaza boshlagan edi?
 1565-yilda
13. Oprichnina bu -...
 podsho yerlari
14. Rossiyada terror va zo'rlikka asoslangan oprichnina siyosati kimlarga qarshi qaratilgan edi?
 boyarlarga
15. Ivan Grozniy tomonidan Qozon xonligi bosib olingan sanani aniqlang.
 1552 yil
16. XVI asr oxiriga kelib Rossiya hududi qanchaga yetdi?
 5,4 mln kv.km
17. Ryurikovlar sulolasi Rossiyani necha yil davomida boshqarishgan edilar?
 700 yil
18. Boris Godunov vafotidan keyin (1605-yil) qaysi davlatlar Rossiyaning ichki ishlariga aralasha boshladilar?
 Polsha va Shvetsiya
19. 1609-yilda qaysi davlat Moskvani egallab olgan edi?
 Polsha
20. Pojarskiy va Minin tomonidan Polyaklar Moskvadan quvib chiqarildan sanani aniqlang.
 1612 yil
21. Rossiyada Romanovlar sulolasi hukmronlik qilgan davrni aniqlang.
 1613-1917 yillar
22. Ivan Grozniy tomonidan Sibir xonligi bosib olingan sanani aniqlang.
 1582 yil
23. Zemstvo sobori tomonidan 1550-yilda qabul qilingan qonunlar to'plamini aniqlang.
 Sudebnik

008-Niderlandiya inqilobi (20)

Savollar va javobi

1. Hozirgi Belgiya, Lyuksemburg va Gollandiya hududlarini birlashtirgan davlat XVI asrda qanday nomlangan?
 Niderlandiya
2. XVI o'rtalarida asrda Niderlandiyadagi qaysi shahar jahon savdosining markazi edi?
 Antverpen
3. Antverpen shahri Niderlandiyani daryo orqali qaysi davlatlar bilan bog'lagan?
 Fransiya va Germaniya
4. Antverpen shahri Niderlandiyani dengiz orqali qaysi davlatlar bilan bog'lagan edi?
 Angliya va Skandinaviya
5. XVI asr boshlarida Niderlandiya qaysi davlatning mulki hisoblangan?
 Ispaniya
6. Ispaniyaning qaysi hududdan oladigan soliq miqdori uning Amerikadagi mustamlakalaridan 4 barobar ortiq edi?
 Niderlandiya

7. 1566-yilda Niderlandiyada boshlangan qo'zg'olonga aholining qaysi tabaqasi boshchilik qilgan edi?
 - burjuaziya
8. 1566 yilda...
 - Niderlandiyada Ispaniya zulmiga qarshi qo'zg'olon boshlandi
9. Niderlandiyada Ispaniyaga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonn bostirish uchun yuborilgan shaxsni aniqlang.
 - gersog Alba
10. Ispaniyadan Niderlandiyaga yuborilgan gersog Alba boshqaruv ishida...qo'lladi.
 - terror, jallod qilichi va inkvizitsiyani
11. Niderlandiyada gersog Alba tomonidan tuzilgan "Isyonlar bo'yicha kengash" xalq orasida qanday nomlanar edi?
 - "Qonli kengash"
12. Niderlandiyada gersog Alba qanday soliq joriy qildi?
 - o'ndan bir solig'i
13. Vilgelm Oranskiy shimoliy hududlarning hukmdori etib tayinlangan sanani aniqlang.
 - 1572 yilda
14. Gersog Alba qachon Niderlandiyadan ketishga majbur bo'lgan edi?
 - 1573 yilda
15. 1579 yilda tuzilgan Utrext uniyasi orasida eng aholisi ko'pi va eng badavlati qaysi viloyat edi?
 - Gollandiya
16. Niderlandiyaning shimoliy viloyatlari tomonidan "Utrext uniyasi" qachon tuzilgan edi?
 - 1579 yilda
17. Utrext uniyasining a'zolar tomonidan kim taxtdan tushirilgan deb e'lon qilingan edi?
 - Filipp II
18. Ispaniya tomonidan Gollandiya respublikasi tan olingan sanani aniqlang.
 - 1609 yilda
19. Gollandiya shahrining qaysi shahri Antverpendan keyin jahon savdosi markaziga aylangan edi?
 - Amsterdam
20. Burjuaziya so'zining asl ma'nosi....
 - shaharlik

009-UygcTnish davri (24)

Savollar va javobi

1. O'rta Osiyoda qaysi davrlarda uyg'onish davri bo'lib o'tgan edi?
 - ikkala javob to'g'ri
2. Yevropada Uyg'onish davri bo'lib o'tgan asrlarni aniqlang.
 - XIV-XVII asrlar
3. Birinchi bo'lib teleskopni kashf qilgan olimni aniqlang.
 - Galileo Galiley
4. Uyg'onish davrining vatani qaysi davlat edi?
 - Italiya
5. Uyg'onish davri qaysi davlat madaniyatining qayta tiklanishi bo'lgan?
 - Qadimgi Rim va Yunon
6. G'arbiy Yevropada kapitalizm qaysi davlatda ertaroq vujudga kelgan edi?
 - Italiyada
7. Tuyg'u va istaklarni cheklash yoki bostirish, azob tortish, hayot ne'matlaridan voz kechish nima deb ataladi?
 - asketizm
8. Mashhur ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir yashagan yillarni aniqlang.

- 1564-1616-yillar
- 9. Mashhur ispan adibi Migel de Servantes yashagan yillarni aniqlang.
- 1547-1616-yillar
- 10. Uilyam Shekspirning qaysi asarida o'z qizlari tomonidan daydib yurishga mahkum etilgan shaxs tasvirlangan?
- "Qirol Lir"
- 11. "Inson - tabiatning ajoyib mo'jizasi" degan fikr qaysi adibga tegishli?
- Uilyam Shekspir
- 12. Uyg'onish davrining qaysi adibi insonlarni o'rab turgan olamni sahna, odamlarni esa aktyorlar deb tasavvur qilar edi?
- Uilyam Shekspir
- 13. "Erkinlik uchun xuddi shon-sharaf uchun qilinganidek, jonni havfga qo'yish kerak" degan shior qaysi asar qahramoniga taaluqli?
- "Don Kixot"
- 14. Leonardo da Vinchi nimani san'atlar malikasi deb atagan edi?
- rasm chizish san'atini
- 15. Leonardo da Vinchining qaysi asarida Isoning o'z shogirdi tomonidan sotilishi voqeasi tasvirlangan?
- "Mahfiy kecha"
- 16. Leonardo da Vinchining mashhur asari bo'lmish Jakonda "Mona Liza" asari hozirda qayerda saqlanadi?
- Parijdagi Luvr muzeyida
- 17. Mashhur rassomlardan biri Rafael Santining yashagan yillarni aniqlang?
- 1483-1520-yillar
- 18. Zamondoshlari tomonidan "shu xildagilarning yagonasi" deb tan olingan asarni aniqlang.
- "Sikstin Madonnasi"
- 19. Mashhur rassomlardan biri bo'lgan Rembrant qaysi davlatdan bo'lgan?
- gollandiyalik
- 20. Mikelanjelo Buonarrottining qaysi haykali uning nomini abadiylikka mahkum etdi?
- "David"
- 21. Mashhur haykaltarosh Mikelanjelo Buonarrottining "David" haykali qahramoni cho'pon yigit kim bilan jangga kirishish oldidan tasvirlangan?
- Goliaf
- 22. Renessans atamasi qaysi tildan olingan?
- fransuz
- 23. "Adashgan o'g'ilning qaytishi" asarining muallifi kim edi? (Ermitaj)
- Rembrant
- 24. Avliyo Pyotr soborini qurishni nihoyasiga yetkazgan shaxsni aniqlang.
- Mikelanjelo

010-Ilm-fan taraqqiyoti (22)

Savollar va javobi

1. Yangi davrning buyuk olimlaridan bo'lgan Nikolay Kopernik yashab o'tgan yillarni aniqlang.
- 1473-1543-yillar
2. Yangi davrning buyuk olimlaridan bo'lgan Jordano Bruno yashab o'tgan yillarni aniqlang.
- 1548-1600-yillar
3. Yangi davrning buyuk olimlaridan bo'lgan Galileo Galiley yashab o'tgan yillarni aniqlang.
- 1564-1642-yillar
4. Nikolay Kopernik qaysi davlat universitetlarida o'qigan edi?
- Polsha va Italiya

5. Buyuk olim Nikolay Kopernikning ilmiy izlanishlari...
 Yerning harakatsizligi haqidagi ta'limotni rad etdi
6. Nikolay Kopernik asari va u chop etilgan sanani aniqlang.
 "Osmon jismlarining aylanishi haqida", 1543-yil
7. 1600-yil 17-fevralda o'zining ilmiy g'oyalari uchun cherkov inkvizitsiyasi tomonidan gulxanda kuydirib o'ldirilgan olimni aniqlang.
 Jordano Bruno
8. Jordano Bruno o'z qarashlariga ko'ra qanday ta'limot tarafdori edi?
 panteizm
9. Kopernik ta'limoti rasman taqiqlangan sanani aniqlang.
 1616 yil
10. Xudo bilan tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi deb hisoblovchi ta'limot qanday nomlanadi?
 panteizm
11. Kim o'zining qarashlarini "Nola falsafasi" deb atagan edi?
 Jordano Bruno
12. "U barcha xalqlar uchun fikr erkinligini talab qildi va shu talabi uchun qatl qilindi" deb kimning haykali tagiga yozilgan?
 Jordano Bruno
13. Teleskop yaratib, shu teleskop bilan osmonni birinchi bo'lib kuzatgan Yevropa olimini aniqlang.
 Galileo Galiley
14. "Yer ham, quyosh ham olamning markazi emas" degan fikr kimga tegishli?
 Jordano Bruno
15. G.Galiley o'z qarashlarini qaysi kitobda bayon etgan?
 "Yulduzlar axboroti"
16. Oyda ham Yerdagi kabi tog'lar borligini va hatto Quyoshda dog'lar mavjudligini o'z ilmiy izlanishlarida qayd etgan allomani aniqlang.
 Galileo Galiley
17. Insonning tabiiy huquqlari – yashash, erkinlik va mulkka egalik qilish huquqlari to'g'risida ta'limot yaratgan olimni aniqlang.
 Jon Lokk
18. Qaysi asrdan boshlab odamlar suv va shamoldan energiyaning yangi manbai sifatida foydalana boshladilar?
 XVI asr
19. Nechanchi asrdan boshlab ruda portlash yo'li bilan olina boshlandi?
 XVII asr
20. 1992 yilda Rim Papasi Ioann Pavel II (marhum) kimga nisbatan inkvizitsiya qarori bekor qilinganini va oqlanganini e'lon qilgan edi?
 Galileo Galiley
21. XVII asrda qaysi alloma tomonidan davlat hokimiyatini bo'lish, ya'ni ijro etuvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratish haqidagi ta'limotni yaratgan faylasuf olimni aniqlang.
 Jon Lokk
22. XVII asrda qaysi davlat ko'mir qazib olish markaziga aylangan edi?
 Angliya

011-Angliyada burjua inqilobining boshlanishi (20)

Savollar va javobi

1. Londonda dastlabki birja ochilgan sanani aniqlang.
 1600 yilda

2. XVI asrdan keyin tashqi savdoda monopol huquqni qo'lga kiritgan shaharni aniqlang.
 London
3. XVII asr boshida Angliyada qaysi sulola hukmronligi boshlangan edi?
 Stuart
4. XVII asr boshida nima uchun Angliyada inqilobiy vaziyat vujudga kelgan edi?
 hamma javob to'g'ri
5. Angliya qirollaridan qay biri mahsulot sifati yomonlashadi deb yangi ixtirolarni taqiqlab qo'ygan edi?
 Yakov I
6. Yakov I ning qaysi davlat bilan murosasozlik qilishi burjuaziyaning noroziligiga sabab bo'lgan edi?
 Ispaniya
7. Angliya qirollari Karl I hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
 1625-1649 yillar
8. 1628 yil Angliya parlamenti qirolning qaysi hujjatni imzolashiga erishgan edi?
 ikkita javob to'g'ri
9. Senzura so'zining ma'nosi...
 ro'yxatga olaman
10. Angliyada qirol parlamentni tarqatib yuborganidan keyin qaysi davlat unga hujum qilgan edi?
 Shotlandiya
11. Angliya parlamenti tomonidan "Buyuk remonstratsiya" deb atalgan hujjatni qabul qilingan sanani aniqlang.
 1641 yil
12. Angliya tarixida Uzoq parlament chaqirilgan sanani aniqlang.
 1640-yil 3- noyabr
13. Quyidagi sanalardan qay biri Angliyada burjua inqilobining boshlanish sanasi hisoblanadi?
 1640-yil 3- noyabr
14. Angliyada 1640-yil chaqirilgan parlament birinchi navbatda...
 favqulodda sudlarni tarqatib yubordi
15. Angliyada 1640-yil chaqirilgan parlament Maxfiy Kengashning qaysi vakolatini bekor qilgan edi?
 Oliy Sudni amalga oshirish
16. Oliy davlat yoki hukumat boshlig'iga ko'pchilik tomonidan birgalikda beriladigan rasmiy ariza, iltimosnoma qanday nomlanadi?
 petitsiya
17. Remonstratsiya bu...
 norozilik hujjati
18. 1642-yil boshlariga kelib Angliyada....
 qirol va parlament o'rtasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi
19. Konstitutsiyaga tenglashtirilgan hujjatlar nomi, qonunlar loyihasi ma'nosini anglatuvchi atamani aniqlang.
 bill
20. Nemischa "hamyon" ma'nosini bildiruvchi, tovarlar va qimmatbaho qog'ozlar ulgurji savdosi bozori ma'nosini anglatuvchi atamani aniqlang.
 birja

012-Angliyada fuqarolar urushi va uning oqibatlari (24)

Savollar va javobi

1. Angliyada fuqarolar urushi boshlangan sanani aniqlang.
 1642-yil yozida

2. Angliya tarixida alohida iz qoldirgan davlat arboblardan Oliver Kromvel yashab o'tgan yillarni aniqlang.
 1599-1658-yillar
3. 1643-yilda Angliya parlamenti qaysi davlat bilan qirolga qarshi ittifoq tuzdi?
 Shotlandiya
4. Qirol tarafdorlari va parlament armiyasi o'rtasida Neyzbi yaqinidagi hal qiluvchi jang bo'lib o'tgan sanani aniqlang.
 1645-yil 14-iyun
5. 1646 yil qirol yashiringan ...ning egallanishi bilan Angliyada fuqarolar urushi tugadi?
 Oksford
6. 1649-yilda ...ni "keraksiz, xalq farovonligi uchun zararli va xavfli" bo'lgani uchun bekor qildi.
 qirollik hokimiyatini
7. Angliya Respublika deb e'lon qilingandan keyin butun hokimiyat kimning qo'liga o'tdi?
 bir palatali parlament
8. Angliya tomonidan 1649-yil bosib olingan davlatni aniqlang.
 Irlandiya
9. Angliya o'z tarixida birinchi va oxirgi marta Respublika deb e'lon qilingan sanani aniqlang.
 1649-yil 19-may
10. Oliver Kromvel "Ozod davlat Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaning Lord-protektoriga" aylangan sanani aniqlang.
 1653 yil
11. 1654-yilda Angliyaning asosiy savdo raqibimag'lubiyatga uchratildi.
 Gollandiya
12. "Qit'aning kalitlari uning belida bog'liq" deb kim haqida aytilgan?
 Oliver Kromvel
13. Oliver Kromvel hukmronligi davrida amalga oshirgan eng katta xizmatlaridan birini aniqlang.
 vijdon erkinligining e'lon qilinishi
14. Oliver Kromvel o'limidan keyin Angliyada yana monarxiya qayta tiklangan sanani aniqlang.
 1660 yil
15. Oliver Kromvel vafotidan ikki yil o'tib...
 Angliyada monarxiya qayta tiklandi
16. Angliyada Karl II hukmronligi yillarini aniqlang.
 1660-1685-yillarda
17. Angliyada 1685-1688 yillarda kim qirollik qilgan edi?
 Yakov II
18. Angliya qiroli Yakov II davrida aholining keskin noroziligiga sabab bo'lgan voqeani aniqlang.
 katolik dini qayta tiklashga urinish
19. Angliyada 1688 yildagi "sharaflı inqilob" natijasida taxtga o'tirgan shaxsni aniqlang.
 Vilgelm Oranskiy
20. XVII asr oxirida Angliyada....
 cheklangan monarxiya qaror topdi
21. Lotincha "ma'lum qilaman" ma'nosini beruvchi so'zni aniqlang.
 deklaratsiya
22. Angliya burjua inqilobi nima bilan yakunlandi?
 parlamentning g'alabasi bilan
23. XVII asr oxirida ingliz qiroli "Huquqlar deklaratsiyasi" nomli hujjatni imzolashi bilan...
 qirolning qo'shin, sud va mamlakat moliyasi ustidan hukmronligi bekor qilindi
24. Quyidagi atamalardan qay biri mustamlaka shakllaridan birini bildiradi?
 protektorat

013-Angliyaning dunyoda birinchi sanoat mamlakatiga ay

Savollar va javobi

1. XVIII asrda Angliya parlamentidagi qaysi partiya parlament huquqlarini himoya qilar edi?
 vigilar
2. XVIII asrda Angliya parlamentidagi qaysi partiya qirol huquq va manfaatlarini himoya qilar edi?
 torilar
3. Angliya va Shotlandiya o'rtasidagi Uniya qonunlashtirilgan va davlat Buyuk Britaniya deb atala boshlagan sanani aniqlang.
 1707 yil
4. Angliya parlamentining vakolat muddati 1716-yilgacha qancha yil edi?
 3 yil
5. 1707-yilda Angliyaning qaysi davlat bilan uniya tashkil etishi Buyuk Britaniya davlatinig paydo bo'lishiga olib keldi?
 Shotlandiya
6. Angliyada professional parlamentga asos solingan yilni aniqlang.
 1716 yil
7. Angliyada professional parlament tashkil topishidan roppa rosa yuz yil oldin...
 Kopernik ta'limoti cherkov tomonidan taqiqlandi
8. XVIII asrda Angliyaning tashqi siyosatdagi asosiy raqibi bo'lgan davlatni aniqlang.
 Fransiya
9. XVIII asrda Angliyaning tashqi siyosatidagi asosiy yo'nalishni aniqlang.
 ikkita javob to'g'ri
10. Ispan taxti uchun kelib chiqqan urush natijalariga ko'ra Britaniyaga Ispaniyaning qaysi hududi o'tgan edi?
 Gibraltar
11. 1763 yilda Fransiya Britaniya tomonidandan siqib chiqarildi.
 Kanada
12. Quyidagi hududlardan qay biri XVIII asrning 60-yillarida Buyuk Britaniya mustamlakalari qatoriga kirmaydi?
 Birma
13. Qaysi asr Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasidagi "ikkinchi yuz yillik urush" deb ham ataladi?
 XVIII asr
14. Angliyada dehqonlar va feodallar sinf sifatida barham topgan asrni aniqlang.
 XVIII asr
15. Angliyada XVIII asrda amalga oshgan agrar inqilob natijasida...
 yerga ishlov berishda yollanma mehnatdan foydalanila boshlandi
16. Og'ir sanoatga misol bo'la olmaydigan sohani aniqlang.
 gazlama ishlab chiqarish
17. Angliyada sanoat inqilobi boshlangan asrni aniqlang.
 XVIII asr
18. Angliyada sanoat inqilobi dastlab qaysi sohada boshlangan edi?
 to'qimachalik
19. Jon Key tomonidan uchar moki-to'quv dastgohi ixtiro qilingan sanani aniqlang.
 1733 yil
20. 1785 yilda mexanik to'quv dastgohini yaratgan shaxsni aniqlang.
 Edmund Kartrayt
21. 1784 yilda tokarlik dastgohini ixtiro qilgan shaxsni aniqlang.
 T.Modsli
22. 1779 yilda...
 Darbilar oilasi dunyoda birinchi cho'yan ko'prik ixtiro qildilar
23. XVIII asr oxirida dunyoning dastlabki sanoat mamlakatiga aylangan davlatni aniqlang.
 Buyuk Britaniya

24. Angliyada qachon "Sanoat va sanoatni rivojlantirish jamiyati"ning yigiruv mashinasini kashf etgan kishiga katta mukofot va'da qilingan edi?
- 1761-yilda
25. Jeyms Xargrivs tomonidan "Jenni" ip-yigiruv dastgohi yaratilgan sanani aniqlang.
- 1765-yilda
26. 1775-yilda kim tomonidan bug' mashinasining yaratilishi fabrika ishlab chiqarishini rivojlantirishga asos bo'lgan edi?
- Jeyms Uatt
27. Shaxtalardan suvni chiqarishda ishlatiladigan bug' mashinasini yaratish kimning nomi bilan bog'liq?
- Abraham Darbi II
28. Zamonaviyn to'plarni yashash olib kelgan kashfiyot kimning nomi bilan bog'liq?
- Jon Uilkinson
29. 1788-yilda...
- dastlabki cho'yan quvurlar yasashga muvaffaq bo'lindi
30. Quyidagi atamalardan qay biri "yagona birlik" degan ma'noni bildiradi?
- uniya

014-Amerika Qo'shma Shtatlarining tashkil topishi (26)

Savollar va javobi

1. Quyidagi omillardan qay birlari amerika xalqining shakllanishiga olib kelgan edi?
- hamma javob to'g'ri
2. Qachondan boshlab Angliyaning mustamlakasi bo'lgan Shimoliy Amerikada yagona bozor vujudga kela boshladi?
- XVIII asr o'rtalari
3. Angliya qiroli tomonidan yevropaliklarning Amerika g'arbiga siljishini taqiqlovchi qarori chiqarilgan sanani aniqlang.
- 1763 yil
4. Angliya qiroli tomonidan yevropaliklarning Amerika g'arbiga siljishini taqiqlovchi qarori...
- mahalliy hindular bilan urush kelib chiqishining oldini olishi kerak edi
5. Metropoliyaga qarshi kurashish maqsadida amerikalik inglizlar 1765 yilda "....." nomli tashkilot tuzdilar.
- "Ozodlik farzandlari"
6. Angliyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi amerikalik inglizlar qachon "Ozodlik farzandlari" degan tashkilot tuzgan edilar?
- 1765 yil
7. 1774 yilda Amerikaning 13 shtati qaysi shaharda Kontinental Kongressga yig'ilgan edi?
- Filadelfiya
8. Amerikada tuzilgan "Ozodlik farzandlari" tashkiloti...
- ingliz tovarlarini boykot qilinishi harakatini boshqarib turdi
9. Amerika va Buyuk Britaniya qirolligi o'rtasida urush boshlanib ketgan sanani aniqlang.
- 1775-yilda
10. AQSHning milliy-ozodlik kurashiga boshchilik qilgan Jorj Vashington yashagan yillarni aniqlang.
- 1732-1799-yillar
11. AQSHda milliy-ozodlik kurashi yillarida "Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilingan sanani aniqlang.
- 1776-yil 4-iyulda
12. Quyidagi qaysi davlatda burjua inqilobiga burjuaziya va quldor-plantatorlar boshchilik qilishgan edi?

- AQSHda
- 13. Amerika burjua inqilobining o'ziga xos xususiyati nimada edi?
- urushning milliy-ozodlik urushi shaklida o'tganligi
- 14. 1776-yilda AQSHdan kim Fransiya elchi sifatida jo'natilgan edi?
- Benjamin Franklin
- 15. 1778-yilda AQSH qaysi davlat bilan "Do'stlik va Tijorat" bitimini imzolagan edi?
- Fransiya
- 16. Quyidagi qaysi davlatlar Buyuk Britaniyaning zaiflashuvidan birdek manfaatdor edilar?
- Ispaniya va Rossiya
- 17. 1783-yil 3-sentabrda AQSH va Buyuk Britaniya o'rtasidagi kelishuv bitimi qaysi shaharda imzolangan edi?
- Parij
- 18. AQSH konstitutsiyasi qabul qilingan yilni aniqlang.
- 1787-yil
- 19. 1787-yilda qaysi shaharda mamlakat vakillarining Ta'sis Konventi chaqirilgan edi?
- Filadelfiyada
- 20. Amerika Qo'shma shtatlarida prezident to'g'risidagi ma'lumotlardan qay biri noto'g'ri?
- prezident to'g'ridan-to'g'ri fuqarolar tomonidan saylanadi
- 21. AQSHda prezident farmonlari va AQSH qonunlarini konstitutsiyaga mosligini tekshiruvchi organ qanday nomlanadi?
- Oliy Sud
- 22. Biror-bir davlat yoki korxonalar tovarlarini xarid qilishdan voz kechish nima deb ataladi?
- boykot
- 23. Mustamlakachi davlat qanday nomlanadi?
- metropoliya
- 24. AQSHda Kongressning yuqori palatasi qanday nomlanadi?
- Senat
- 25. 1789-yilda AQSHning birinchi prezidenti etib saylangan shaxsni aniqlang.
- Jorj Vashington
- 26. AQSHda mustaqillik urushi yillarida oliy qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirgan organi aniqlang.
- Kontinental Kongress

015-Buyuk fransuz inqilobi va monarxiyaning tugatilishi (17)

Savollar va javobi

1. XVIII asr oxirlarida, ya'ni Buyuk Fransuz Inqilobi sodir bo'lgunicha Fransiya ahvol qanday bo'lganini aniqlang.
- qirol yakkahokimlik qilar edi
2. Lyudovik XVI 1789 yilda qachondan beri chaqirilmayotgan General Shtatlarni chaqirgan edi?
- 1614 yil
3. Lotincha "farmon, qaror" so'zi ma'nosini beradigan atamani aniqlang.
- dekret
4. Fransiya tarixida birinchi marta konstitutsiya qabul qilingan sanani aniqlang.
- 1791 yil
5. Fransiya inqilob boshlangan paytlarda unga qarshi qaysi davlatlar havf solib turgan edi?
- 1.Rossiya 2.Ispaniya 3.Italiya 4.Germaniya 5.Avstriya 6.Buyuk Britaniya
- 2, 5, 6
6. Qachon Fransiya Milliy Kengash o'zini «Ta'sis Majlisi» deb e'lon qildi?
- 1789-yil 9-iyulda
7. Qachon fransuz xalqi tomonidan Bastiliya (davlat turmasi) egallandi?

- 1789-yil 14-iyulda
- 8. Qachon uchinchi tabaqa deputatlari o'zlarini butun millat vakillari deb e'lon qildilar va Milliy Kengash tuzdilar.
- 1789-yil 17-iyunda
- 9. Fransiyada qachon «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi» qabul qilingan?
- 1789-yilda
- 10. Qachon Fransiya tarixida birinchi marta Konstitutsiya qabul qilingan?
- 1791-yilda
- 11. Fransiyada 18-asr oxirlarida yetakchi bo'lgan partiyalarni aniqlang.
- Jirondachilar va Yakobinchilar
- 12. 18-asr oxirlarida Fransiya hujum uyushtirgan davlatlar xato berilgan javobni toping.
- Rossiya
- 13. Qachon Fransiya Qonun chiqaruvchi Majlis «Vatan xavf ostida» chaqirig'i bilan xalqqa murojaat qildi?
- 1792-yilda
- 14. Fransiyada qachon monarxiya (Lyudovik XVI) ag'darib tashlandi?
- 1792-yil 10-avgustda
- 15. Yakobinchilarning ko'zga ko'ringan vakillari xato berilgan javobni toping.
- O.de Mirabo
- 16. Fransiya qachon Respublika deb e'lon qilindi?
- 1792-yil 21-sentabrda
- 17. 1791-yilgi Fransiya Konstitutsiyasiga ko'ra necha yoshdan boshlab barcha erkaklarga saylash huquqi berilgan?
- 25 yoshdan

016-Buyuk Fransuz inqilobi yakunlari va tarixiy ahamiyati (18)

Savollar va javobi

1. Yakobinchilardan kimlar “ hech kim boy ham, hech kim o'ta kambag'al ham bo'lmaydigan, hamma barcha narsaga yetarli bo'lishini ta'minlaydigan jamiyat” tarafdori bo'lgan?
- Eber va Shomet
2. XVIII asrning 90-yillar boshida Fransiyaning qaysi qismidagi dehqonlar isyonlari shahar burjuaziyasini havotirga solar edi?
- janubida
3. Jirondistlar hokimiyati ag'darilgandan keyin yakobinchilar qanday hukumat tuzdilar?
- jamoat qutqaruv qo'mitasi
4. Fransiyada feodal to'lovlarni butunlay bekor qilgan konstitutsiya qachon qabul qilingan edi?
- 1793 yil
5. Yakobinchilardan kim "shafqatlilar guruhi"ga boshchilik qilar edi?
- Danton
6. Fransiya 5 kishidan iborat Direktoriya davlatni boshqargan yillarni aniqlang.
- 1795-1799 yillar
7. Fransiya Napoleon Bonapartning yakka hokimligiga yo'l ochib bergan konsullikka saylanishgan davlat to'ntarishi qachon bo'lib o'tgan edi?
- 1799-yil 9 noyabr
8. Buyuk Fransuz inqilobi nima uchun Buyuk deb nomlanadi?
- hamma javob to'g'ri
9. Lotinchadan tarjima qilganda “maslahatchi” ma'nosini beruvchi soz'ni aniqlang.
- konsul
10. Fransiya Milliy Konvent tomonidan “Shubhali kishilar tog'risidagi” qonun qabul qilingan sanani aniqlang.

- 1793-yil sentabr
- 11. Fransiya hududidan chet el bosqinchilari quvib chiqarilgan sanani aniqlang.
- 1794-yil
- 12. 1794-yil 27-yil Konventni qamoqqa oldi va uni qonundan tashqari deb e'lon qildi.
- M.Robesper
- 13. Yakobinchilar hokimiyatga kelganlaridan keyin iyul oyi qanday nom olgan edi?
- termidor
- 14. 1797-yilda Avstriyani Fransiya bilan sulh tuzishiga majbur qilgan shaxsni aniqlang.
- N.Bonapart
- 15. Quyidagi qaysi davlat arbobi siyosiy kurashda qonli usul orqali o'z halokatini ham tayyorlab borgan edi?
- Robesper
- 16. Fransiya Direktoriya hukmronligi davrida kim Konventning xaloskori bo'lgan edi?
- N.Bonapart
- 17. Quyidagi qaysi davlatda burjua inqilobi natijasida burjuaziya dvoryanlarni yenggan edi?
- Fransiya
- 18. Quyidagi qaysi davlatda burjua inqilobi natijasida burjuaziya dvoryanlar bilan kelishgan edi?
- Angliya

017-XVI-XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi (27)

Savollar va javobi

1. XVI-XVIII asrlarda qaysi Yevropa davlati 300 dan ortiq knyazliklardan iborat edi?
- Germaniya
2. XVI asrning ikkinchi yarmida qaysi Yevropa davlatida iqtisodiy inqiroz boshlangan edi?
- Germaniya
3. XVI asrgacha Shimoliy Italiya va uning vositachiligida butun Sharqning G'arbiy Yevropa bilan savdosi qaysi davlatdan o'tgan edi?
- Germaniya
4. Germaniyaning xalqaro miqyosdagi iqtisodiy o'rni uning nima ishlab chiqarishi bilan bog'liq edi?
- mis
5. XVI asrda Germaniya misining o'bro'si tushib ketishining sababini aniqlang.
- Amerikadan oltin va kumushning ko'plab olib kelinishi
6. Germaniyaning qoloqlik botqog'ida qolib ketishga sabab bo'lgan O'ttiz yillik urush bo'lib o'tgan yillarni aniqlang.
- 1618-1648-yillarda
7. O'ttiz yillik urushda qatnashgan ikkinchi ittifoqga kirmagan davlatni aniqlang.
- Avstriya
8. O'ttiz yillik urushga yakun yasagan Vestfaliya sulhi qachon tuzulgan edi?
- 1648-yil
9. O'ttiz yillik urushdan keyin qaysi davlatning mustaqilligi tan olingan edi?
- Gollandiya
10. Muqaddas Rim imperatorining saroyi qaysi shaharda joylashgan edi?
- Vena
11. Muqaddas Rim imperiyasining imperiya sudi binosi qaysi shaharda joylashgan edi?
- Vetslar
12. Muqaddas Rim imperiyasining parlament binosi qaysi shaharda joylashgan edi?
- Regensburg
13. XVII asrda qaysi davlat Yevropa davlatlari qo'lida qo'g'irchoq davlatga aylanib qolgan edi?
- Germaniya

14. Quyidagi davlatlardan qay biri XVII-XVIII asrlarda Germaniyaga dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan?
 - Angliya
15. XII asrdan Germaniya imperatori huzurida tashkil etilgan tabaqalar vakillik organi nima deb nomlanardi?
 - reyxstag
16. Prussiya qirolligi tashkil etilgan sanani aniqlang.
 - 1701-yil
17. XVIII asr oxirlarida Prussiya qo'shini jihatdan Yevropada nechanchi o'rinda turar edi?
 - to'rtinchi
18. XVIII asr oxirlarida Prussiya maydoni jihatdan Yevropada nechanchi o'rinda turar edi?
 - uchinchi
19. Yevropa tarixidagi O'ttiz yillik urush davomida Germaniyaning katolik knyazlari yana qaysi davlatlar bilan ittifoq tuzgan edilar?
 - Avstriya va Ispaniya
20. O'ttiz yillik urush natijalariga ko'ra Yevropada gegemonlik qaysi davlatga o'tgan edi?
 - Fransiya
21. Muqaddas Rim imperiyasi nechanchi yilgacha mavjud bo'lgan edi?
 - 1806 yil
22. Muqaddas Rim imperiyasini boshqargan so'nggi sulola bu...
 - gabsburglar
23. Germaniyaning Brandenburg knyazligini boshqargan sulolani aniqlang.
 - gogensollernlar
24. Germaniya knyazlari 1683 yilda....
 - Turkiyaga qarshi birlashdilar
25. Brandenburg knyazligining poytaxti bo'lgan shaharni aniqlang.
 - Berlin
26. Prussiya kimning davrida mutlaq monarxiyaga aylangan edi?
 - Fridrix II
27. O'ttiz yillik urushdan keyin qaysi davlat buyuk davlatlardan biriga aylangan edi?
 - Shvetsiya

018-Rossiya imperiyasining tashkil topishi (36)

Savollar va javobi

1. Qaysi asrdan boshlab Rossiya iqtisodiyotida yangi alomatlar paydo bo'la boshladi?
 - XVII asrdan
2. Rossiya tarixida qaysi asrdan boshlab shaharlar rivojlana boshlagan edi?
 - XVII asrdan
3. Quyidagi qaysi shahar XVII asrda Rossiyada rivojlana boshlagan shaharlar qatoriga kirmaydi?
 - Ufa
4. XVII asrda Moskvada necha turdagi hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan?
 - 250 ta
5. Rossiyada dastlab paydo bo'lgan manufakturalar birinchi bo'lib qaysi sohada paydo bo'lgan edi?
 - qora metallurgiya
6. XVII asrda Rossiya tashqi savdosida muhim o'rin egallagan shaharlarni aniqlang.
 - Arxangelsk, Astraxan
7. XVIII asrgacha Rossiya qaysi dengizlarga chiqish imkoniyatiga ega emas edi?
 - Qora va Boltiq
8. Rossiya dengizga chiqa olmaganligi tufayli ko'p vaqtgacha tashqi savdoni qaysi davlat savdogarlari vositachiligida amalga oshirar edi?

- Buyuk Britaniya va Gollandiya
- 9. Rossiyada chet ellik savdogarlarga chakana savdo bilan shug'ullanishni taqiqlagan "Yangi savdo nizomi" qachon qabul qilingan edi?
- 1667 yil
- 10. 1649 yil Rossiyada qabul qilingan Sobor nizomi...
- hamma javob to'g'ri
- 11. Rossiyada mutlaq monarxiyaning qaror topishi qaysi hukmdor nomi bilan bog'liqdir?
- Pyotr I
- 12. Pyotr I taxtga o'tirgan sanani aniqlang.
- 1689 yil
- 13. Rossiya Boltiq dengiziga chiqish uchun 1700-1721 yillarda qaysi davlat bilan urush olib bordi?
- Shvetsiya
- 14. Buyuk rus hukmdori Pyotr I tashqi siyosati maqsadlaridan birini aniqlang.
- Rossiyani kuchli harbiy-dengiz flotiga ega davlatga aylantirish
- 15. Pyotr I Shvetsiyaga qarshi urushda qaysi davlatlar bilan ittifoq tuzgan edi?
- Polsha va Daniya
- 16. Rossiya va Shvetsiya o'rtasidagi Shimoliy urush taqdirini hal qilgan jang qayerda bo'lib o'tgan edi?
- Poltavada
- 17. Qaysi voqeadan keyin Shvetsiya o'zining buyuk davlat maqomini qo'ldan boy berdi?
- Poltava jangidagi mag'lubiyatdan keyin
- 18. Shimoliy urushda g'alaba qilgan Rossiya...
- Boltiq dengiziga chiqish imkoniga ega bo'ldi
- 19. Pyotr I imperator deb e'lon qilingan sanani aniqlang (Rossiya imperiyasi tashkil topgan yil)
- 1721 yil
- 20. Pyotr I davrida amalga oshirilmagan islohotni aniqlang.
- Saylanma Rada tuzildi
- 21. Pyotr I Rossiyada Boyarlar Dumasi o'rniga Senat tashkil etgan bo'lib, ungavakolatlari berilgan edi?
- ikkita javob to'g'ri
- 22. Rossiyada Pyotr I davrida boshlab qo'shinga qanday tarzda askarlikka olish boshlangan edi?
- rekrut
- 23. Pugachev qo'zg'oloni bo'lib o'tgan sanani aniqlang.
- 1773-1775 yillar
- 24. 1654 yilda...
- Ukraina va Sharqiy Belorussiya Rossiyaga qo'shib olindi
- 25. Rossiyada dastlabki manufakturalar nechanchi asrda paydo bo'ldi?
- XVII asr
- 26. Poltava yaqinidagi jang bo'lib o'tgan sanani aniqlang.
- 1709 yil
- 27. Rossiyaning Boltiq dengiziga chiqishdagi asosiy raqibi..
- Shvetsiya
- 28. 1725-1800 yillarda nechta Romanovlar sulolasi vakillari taxtga o'tirishgan?
- 8 ta
- 29. Rossiya tarkibiga Qrim xonligi qo'shib olingan sanani aniqlang.
- 1783 yil
- 30. Qaysi shartnomaga binoan Rossiya Qora dengizda flot qurish huquqini qo'lga kiritdi?
- Kuchukqaynarja
- 31. Quyidagi qaysi davlat o'z hududini o'ziga tutash hududlarni bosib olishi bilan kengaytirgan edi?
- Rossiya
- 32. O'rta Osiyo oltiniga ega bo'lish maqsadida Pyotr I qachon Xivaga harbiy ekspeditsiya jo'natgan edi?

- 1714-yilda
- 33. XVIII asrning ikkinchi choragida...
- Rossiya Qozog'istonning bir qismini bosib oldi
- 34. 1783-yilda...
- Qrim xonligi Rossiyaga qo'shib olindi
- 35. 1768-yilda...
- Rossiya Turkiya urushi boshlandi
- 36. Rus hukmdori Ekaterina II hukmronlik yillarini aniqlang.
- 1762-1796-yillar

19-XVI-XVIII asrlarda Hindiston (22)

Savollar va javobi

1. Kobul hukmdori Muhammad Zahiriddin Bobur Hindistonga yurish qilganida u yerda kimlar hukmronlik qilardi?
 - Afg'on qabilalaridan chiqqan lo'diyar sulolasi
2. Bobur Mirzo qaysi jangda Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor etdi?
 - Panipat jangida
3. Bobur Mirzo qachon Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor etdi?
 - 1526-yil 21-aprelda
4. Hindistonda Boburiylar hukmronlik qilganyillarni aniqlang.
 - 1526-1858 yillar (332-yil)
5. Mirzo Bobur o'limidan keyin taxtga kim o'tirdi?
 - Humoyun
6. Hindistonda Humoyun imperatorligi davrida uning asosiy raqibi kim edi?
 - Bixor va Bengaliyada joylashib olgan afg'on qabilasi yetakchisi Sherxon Sur
7. Hindistonda Humoyun taxtdan ayrilgan yillarida kimlardan kuchli qo'shin tuza olgan edi?
 - turk, fors, turkman va o'zbeklardan
8. Afg'on qabilasi yetakchisi Sherxon Sur nechanchi yillarda Hindiston taxtini egallab olgan edi?
 - 1540-1555 yillarda
9. Hindistonda Boburiylar imperiyasida kim "Buyuk" unvonini olgan edi?
 - Akbarshoh
10. Akbarshoh qachon otasi taxtini egalladi?
 - 1556-yilda
11. Akbarshoh qachon afg'on qabilalari qo'shinini tor-mor etdi?
 - 1556-yilda
12. Qachon Boburiylarga qarshi afg'onlarning Sur sulolasi butunlay yanchib tashlandi?
 - 1559-yilda
13. "Akbar Hindiston tarixidagina emas, balki jahon tarixida ham eng buyuk shohdir. Agar yevropalik hukmdorlar bilan taqqoslanadigan bo'lsa, Akbar ulug'vorlikda ham, omadborarlikda ham ulardan ustun turadi" - deb qaysi tarixchi aytib o'tgan edi?
 - Ishvari Prasad
14. Boburiy Akbarshoh qaysi fanlar ilmini yaxshi egallagan edi?
 - falsafa, din, adabiyot va tarix
15. Akbarshoh amalga oshirgan islohotlarni toping.
 - Hamma javoblar to'g'ri
16. Hindistonda qaysi hukmdor "Milliy podshoh", "Xalq hukmdori" kabi nomlarga sazovor bo'lgan?
 - Akbarshoh
17. 1627-1658 yillarda kim Hindistonda hukmronlik qilgan?
 - Shoh Jahon

18. 1658-1707 yillarda kim Hindistonda hukmronlik qilgan?
 Avrangzeb
19. Avrangzeb hindlarni qaytadan "jizya" solig'i to'lashga qachon majbur etdi?
 1679-yilda
20. Avrangzeb islohotlari natijasida hind savdogarlariga tovarning necha foizi miqdorida soliq joriy etildi?
 5 foiz
21. Buyuk Britaniya Bengaliyani qachon bosib olgan?
 1757-yilda
22. Jogir bu -
 Harbiy xizmat evaziga in'om etilgan yerlar

20-XVI-XVIII asrlarda Xitoy (16)

Savollar va javobi

1. XVI asrda Xitoyda qaysi sulola hukmronlik qilardi?
 Min
2. XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida Xitoy uchun o'ta xavfli qanday tashqi raqib paydo bo'ld?
 Manjuriya davlati
3. Manjuriya hozirgi qaysi hududlarga to'g'ri keladi?
 Xitoy Xalq Respublikasi shimoliy-sharqiy qismi (Dunbey)
4. Manjuriya hukmdori Abaxay qachon o'zini imperator deb e'lon qildi?
 1636-yilda
5. Manjuriya hukmdori Abaxay o'z sulolasini qanday nom bilan atay boshladi?
 Sin (toza, tiniq)
6. Manjuriya zulmiga qarshi Xitoyda dehqonlar qo'zg'oloniga kim qo'mondonlik qildi?
 Li Szi Chen
7. Manjuriya zulmiga qarshi Xitoyning janubiy-g'arbiy hududlarida dehqonlar qo'zg'oloniga kim qo'mondonlik qildi?
 Chjan Syan-chjun
8. Xitoyda Min sulolasi qachon ag'darildi va qaysi sulola hukmronligi boshlandi?
 1644-yilda, Sin
9. Xitoyda Sin sulolasi hukmronligi yillarini aniqlang.
 1644-1911 yillar
10. Min sulolasining so'nggi davrlarida shimolda Manjuriyaga qarshi kim hukumat qo'shinlari bilan kurashayotgan edi?
 General U San-guy
11. Sin sulolasi hukmronligi yillarida Koreya qachon vassal davlatga aylantirildi?
 1637-yilda
12. Qachon Xitoyda Guanchjoudan boshqa barcha portlar Yevropa kemalari uchun yopib qo'yildi?
 1757-yilda
13. Qachon Xitoy shimoliy va G'arbiy Mo'g'ulistonda tashkil topgan Jung'oriya (Oyrat) xonligini nutunlay bosib oldi?
 1758-yilda
14. Qachon Nepal davlati Sin sulolasining vassal davlatga aylantirilganligini majburan tan oldirdi?
 1792-yilda
15. Despotik davlat bu -
 Huquqi cheklanmagan, zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat
16. Korrupsiya bu -
 Mansabdor shaxslarning shaxsiy boyish maqsadida sotilishi

Savollar va javobi

1. XVI asr boshlarida Yaponiyada ...
 - o'zaro ichki urishlar oqibatida, amalda mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketgan edi
2. ...Yaponiyada "Kurashuvchi vloyatlar davri" boshlandi
 - 1507-yildan
3. Yaponiyada o'zar ichki kurashlar qaysi sulola hokimiyatining ag'darilishi bilan nihoyasiga yetdi?
 - 1573-yilda ikkinchi syogun Asikaga
4. XVI asr oxirlarida Yaponiyani birlashtirishdek tarixiy vazifaga kim rahbarlik qildi?
 - Oda Nobunaga
5. XVI asr oxirlarida Yaponiyada Oda Nobunaga amalga oshirgan islohotlarni tartibi bilan joylashtiring.1.Katta yer egalari yerlari musodara qilinib, dehqonlarga bo'linib berildi 2.Mahalliy soliq va bojxona to'lovlarini bekor qildi 3.Savdo yo'llari va ko'priklar ta'mirlandi 4.Shaharlarga bozorlar ochish huquqi berildi 5.Bir xil o'lchovli oltin tangalarni muomalaga kiritdi 6.Shaharlarning tashqi savdo faoliyati rag'batlantirildi.
 - 2,3,4,5,6
6. XVI asrning 40-yillarida Yevropalik davlatlardan qay biri Yaponiyaga kirib kela boshladi?
 - Portugaliya
7. 1543-yilda Yaponiyaning Bungo viloyati hukmdori bilan turli tovarlar olib kelish bo'yicha savdo shartnomasini imzolagan Portugaliya savdogarini aniqlang.
 - Mendish Pintu
8. Yevropaliklarning Yaponiya kirib kelishlarining eng ahamiyatli joyi...
 - o'qotar qurolning Yaponiyaga keltirilishi va u yerda ishlab chiqarilishi bo'ldi
9. Quyidagi shaxslardan qay biri yaponlarga o'qotar qurollar yasash sirlarini o'rgatgan edi?
 - Mendish Pintu
10. Yaponiyada kim xristian dinning yoyilishiga homiylik qilgan edi?
 - Oda Nobunaga
11. Nima uchun Oda Nobunaga xristianlikni qo'llab quvvatlagan edi?
 - budda din peshvolari unga qarshi kuchlarni qo'llagan edilar
12. Qachon Oda Nobunaga fitna qurboni bo'ldi?
 - 1582-yilda
13. Oda Nobunaga fitna qurboni bo'lganidan keyin uning ishini kim davom ettirdi?
 - Toyotomi Xidayosi
14. Qachon Toyotomi Xidayosi barcha xristian ruhoniylarining Yaponiyani tark etishi kerakligi to'g'risida qonun chiqardi?
 - 1587-yilda
15. Toyotomi Xidayosining 1587-yildagi qonuni kimlarga nisbatan qo'llanilmagan edi?
 - Portugaliya savdogarlari
16. XVI asrda Yaponiya qaysi davlat bilan o'zaro manfaatdorlikka asoslangan savdo shartnomasini imzolagan edi?
 - Portugaliya
17. Toyotomi Xidayosi vafotidan 16 yil oldin va 16 yil keyin bo'lgan voqealarni aniqlang.
 - Oda Nobunaga fitna qurboni bo'ldi va Yaponiyada xristian dini taqiqlandi
18. Yaponiyada so'nggi syogunlikni aniqlang.
 - Tokugava
19. Yaponiyani birlashtirish ishi qaysi syogunlik davrida amalga oshgan edi?
 - Tokugava
20. Yaponiyada Tokugava syogunligining hukmronlik yillarini aniqlang.
 - 1603-1867-yillar
21. Tokugava sulolasining sakkizinchi vakilini aniqlang.

- Tokugava Yosimune
- 22. Tokugava sulolasidan Yosimune hukmronlik yillarini aniqlang.
- 1716-1745-yillar
- 23. Yaponiyada Tokugava Yosimune hukmronligi boshlangan yili ...
- Buyuk Britaniyada professional parlament vujudga keldi
- 24. Yaponiyada qaysi hukmdor davrida yerni sotish, sotib olish yoki garovga qo'yishni taqiqlovchi qonun chiqarilgan edi?
- Tokugava Yosimune
- 25. Yaponiyada qaysi hukmdor davrida mamlakat va jamiyat hayotini tartibga soluvchi "Yuz moddali Farmon" deb ataluvchi qonunlar to'plami qabul qilingan edi?
- Tokugava Yosimune

22-XVI-XVIII asrlarda Usmonli turklar imperiyasi (19)

Savollar va javobi

1. XVI asrda Usmonli imperiyasi ma'muriy jihatdan qanday bo'lingan edi?
 - imperiya-viloyat-sanjoq
2. Usmonli turk imperiyasida viloyatlarni kimlar boshqargan edi?
 - vali
3. Usmonli turk imperiyasining tayanchi bu - uning ...edi.
 - qo'shini
4. Usmonli turk imperiyasida otlq askar sipohilar zaruriyat tug'ilganda kim boshchiligida belgilangan joyga yetib kelishlari kerak edi?
 - sanjoqbey
5. Usmonli turk imperiyasining doimiy qo'shini nima deb atalar edi?
 - yanichar
6. XVI asrda Usmonli turk imperiyasining Osiyodagi asosiy raqibi qaysi davlat edi?
 - Eron
7. Usmonli turk imperiyasi sultoni Sulton Salim qachon Ismoil Safaviy qo'shinlarini yengdi?
 - 1514-yilda
8. XVI asrda qaysi davlat safaviylar ittifoqchisi bo'lib, Usmonli turk imperiyasiga qarshi kurashgan edi?
 - Misr
9. Sulton Salim istilolarini ketma-ketlikda joylashtiring.
 - Suriya - Falastin - Qohira
10. Sulton Salim 1517-yilda ...
 - Qohirani bosib oldi
11. Quyidagi qaysi imperiya dunyoning uch qit'asida - Osiyo, Yevropa va Afrikada joylashgan edi?
 - Usmonli turk imperiyasi
12. 1519-yilda Usmonli turk imperiyasida kim boshchiligida qo'zg'olon bo'lib o'tgan edi?
 - shayx Jalol
13. XVI asr o'rtalarida Usmonli turk imperiyasida qishloq xo'jaligi nima sababdan inqirozga yuz tutgan edi?
 - dehqonlarning xonavayron bo'lishi va qochib ketishlari
14. 1610-yilda Turkiyada chiqarilgan maxsus farmon qanday nomlangan edi?
 - "Adolat farmoni"
15. Qachon Yevropa davlatlari Turkiyaga qarshi "Muqaddas Liga" tuzgan edilar?
 - 1684-yilda
16. Qachon Turkiya avvalgidek hujumkor qudratga ega bo'lmay qolgan edi?
 - XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida
17. XVII- XVIII asrlarda Turkiyada qaysi davlat savdogarlari uchun faqatgina 3 foiz miqdorda boj

o'rnatilgan edi?

Fransiya

18. XVIII asrda Turkiya qaysi davlat bilan bir necha bor urushgan edi?

Rossiya

19. "Ittifoq, birlashma" degan ma'noni bildiruvchi atamani aniqlang.

liga

23-XVI-XVIII asrlarda Eron (32)

Savollar va javobi

1. XV asrda Erondagi siyosiy beqarorlik uni qaysi davlat tomonidan bosib olinish xavfini kuchaytirgan edi?

Turkiya

2. XVI asr boshlarida Eronni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan Ismoil Safaviy qaysi shahar hukmdori edi?

Adabiy

3. 1502-yilda Ismoil Safaviy qaysi shaharni egallab o'zini shohanshon deb e'lon qilgan edi?

Tabriz

4. Ismoil Safaviy Eronda hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.

1502-1524-yillar

5. Ismoil Safaviy tuzgan "Safaviylar" davlatiga Erondan tashqari yana qaysi hududlar kirgan edi?

1.Ozarbayjon 2.Armanistonning bir qismi 3.Afg'oniston 4.janubiy-sharqiy Iroq

1, 2, 3, 4

6. Ismoil Safaviy markaziy boshqaruvchi mustahkamlash maqsadida qaysi yer egaligi bekor qilib, qanday yer egaligini joriy qilgan edi?

suyurg'olni bekor qilib, tiyulni joriy qilgan

7. Quyidagi fikrlardan qay biri tiyul haqida noto'g'ri fikr beradi?

bunday yerlarni meros qoldirish mumkin edi

8. Eronda shoh Abbas I hukmronlik qilgan yillarni to'g'ri aniqlang.

1587-1629-yillar

9. Safaviylar davlati qaysi hukmdor davrida o'zining qudrati cho'qqisiga ko'tarilgan edi?

shoh Abbas I

10. Eron shohi Abbas I poytaxtni qayerdan qayerga ko'chirgan edi?

Ozarbayjondagi Tabrizdan Erondagi Isfahonga

11. Eron shohi Abbas I quyidagi qaysi davlatlar bilan keng ko'lamli savdo-sotiq yo'lga qo'ygan edi?

1.Rossiya 2.Niderlandiya 3.Turkiya 4.Angliya 5.Venetsiya 6.Fransiya

1, 2, 3, 4, 5, 6

12. Eron shohi Abbas I qaysi davlat mutaxassisleri yordamida o'q otuvchi qurol va to'p joriy qilgan edi?

Angliya

13. 1602-yilda Eron o'zining azaliy raqibi bo'lgan qaysi davlatni tor-mor qilgan edi?

Turkiya

14. 1602-yildagi g'alabasidan keyin Eron qayerda mustahkamlanib olgan edi?

Kavkazda

15. Eron Angliya yordamida qaysi davlatni Ormuz orolidan quvib chiqarishga muvaffaq bo'lgan edi?

Portugaliya

16. Eron Ormuz oroli orqali Yevropaga nima eksport qilar edi?

ipak

17. Quyidagi qaysi savdo kompaniyasi Eron bilan savdoda katta imtiyozlarga ega bo'lib olgan edi?

"Ost-Indiya"

18. XVIII asrdan boshlab nima uchun Safaviylar davlatida iqtisodiy tushkunlik boshlangan edi?
 tiyul yer egaligining ko'payishi natijasida davlatga qarashli yerlarning kamayishi tufayli
19. Turkiyada "Adolat" farmoni chiqarilgandan 100 yil o'tib ...
 Eronda shoh Husayn dehqonlarning yerni tashlab ketishni taqiqlovchi qonun chiqardi
20. 1709-yilda Eronga qarshi qayerda isyon ko'tarilgan edi?
 Afg'onistonda
21. Afg'onlar yetakchisi Mir Mahmud qachon Eronni istilo qilgan edi?
 1722-yilda
22. Safaviylar sulolasining so'nggi hukmdorini aniqlang.
 Taxmasp II
23. Nodirquli turkmanlarning qaysi qabilasi yetakchisi edi?
 afshor
24. Nodirquli qachon Eronni afg'on bosqinidan ozod qilgan edi?
 1730-yilda
25. Nodirquli qachon aslzodalar qurultoyida o'zini Eron shohi deb e'lon qilishga erishgan edi?
 1736-yilda
26. Ichki kurashlar natijasida qachon Nodirshoh o'ldirilgan edi?
 1747-yilda
27. Nodirshoh o'ldirilgandan keyin qaysi qabilalar o'rtasida Eronda hukmronlik uchun kurash ketgan edi?
 zend va qojar
28. Eronda zendlar sulolasining hukmronlik yillarini aniqlang.
 1758-1796-yillar
29. 1796-yilda Eronda qaysi sulola hokimiyatga keldi?
 qojar
30. Eronda qojarlar davrida davlat poytaxti qaysi shahar bo'lgan edi?
 Tehron
31. Eronda qojarlar sulolasi qachongacha hukmronlik qildi?
 1925-yilgacha
32. XVI-XVIII asrlarda Eronda sulolalar necha marta almashdi?
 4 marta

24-XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Buyuk Britaniya (20)

Savollar va javobi

1. XIX asr boshlarida Buyuk Britaniyada sanoat gurg'irab rivojlanishida qaysi sohalar yetakchi o'rinni egalladi?
 To'qimachilik, metallurgiya, mashinasozlik va kon
2. 1816-yilda Buyuk Britaniyada mashinalashgan ishlab chiqarish necha kishining qo'l mehnatiga teng ishni bajardi?
 150 mln
3. XIX asr boshlarida Buyuk Britaniya aholisi qanchani tashkil etar edi?
 12 mlanni
4. Dunyoda birinchi temiryo'l qachon, qaysi davlatda qurildi?
 Buyuk Britaniyada, 1825-yilda
5. XIX asr insoniyat tarixiga qanday yil bo'lib kirgan?
 Bug' asri
6. Qachondan Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligida mashinalar va kimyoviy o'g'itlar ishlatila boshlandi?
 XIX asrning 40-yillarida
7. Dunyoning birinchi industrial davlatiga aylangan davlatni aniqlang.

- Buyuk Britaniya
- 8. Qachondan Buyuk Britaniyada sanoat to'ntarishi tugallandi?
- XIX asrning 50-yillarida
- 9. Buyuk Britaniya parlamenti ...ish tashlashda qatnashishni taqiqlovchi qonun qabul qildi?
- 1825-yilda
- 10. Buyuk Britaniyada 1832-yilgi parlament islohotiga ko'ra...
- Hamma javoblar to'g'ri
- 11. Buyuk Britaniyada 1832-yilgi parlament islohotiga ko'ra...
- Hamma javoblar to'g'ri
- 12. Qachondan Buyuk Britaniyada 13 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 8 soatlik ish vaqti belgilandi?
- 1833-yildan
- 13. Qachondan Buyuk Britaniyada 9 yoshgacha bo'lgan bolalar mehnati taqiqlandi?
- 1833-yildan
- 14. Qachon Londonda ishchilarning "Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi Assotsatsiyasi" tuzildi?
- 1836-yilda
- 15. Buyuk Britaniyada 1867-yilgi parlament islohotiga ko'ra...
- Shaharlarda o'z uyiga ega bo'lgan hamda alohida kvartirada turadigan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi
- 16. Buyuk Britaniyada 1867-yilgi parlament islohotiga ko'ra...
- Saylovchilar soni 1832-yilgi 600 ming kishidan bir yo'la 2 mln kishiga yetdi
- 17. Buyuk Britaniya XVIII asr va XIX asrning I yarmi mobaynida bosib olgan tayanch punktlarini hududi bilan to'g'ri joylashtiring. 1.Gibraltar 2.Singapur 3.Keytaun 4.Gongkong 5.Adan a) Ezgu Umid burni - Afrikaning janubiy qismi b) Xitoy bo'sag'asi c) Qizil dengizdan Hind okeaniga chiqish d) O'rtayer dengizidan Atlantika okeaniga chiqish e) Hindiston bo'sag'asi
- 1-d, 2-e, 3-a, 4-b, 5-c
- 18. 1861-yilga kelib, Avstraliyada yashovchi oq tanli aholi qanchani tashkil etdi?
- 1 mln 200 ming kishini
- 19. Buyuk Britaniya Kanadaga qachon dominionlik huquqini berdi?
- 1867-yilda
- 20. Dominion bu -
